

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

TURSINOVA NODIRANING

**5220100 – o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA “KICHIK
ODAMLAR” OBRAZI TALQINI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n. O.Fayzullayeva

Guliston – 2017

REJA:

Kirish

I bob. Hozirgi o'zbek hikoyachiligida "kichik odamlar" obrazi talqini

1.1 "Kichik odamlar" obrazining xarakterli xususiyatlari

1.2 Ushbu obrazning yuzaga kelish omillari

II bob. " Kichik odamlar" obrazi talqinida yozuvchi mahorati masalasi

2.1 "Kichik odamlar" obrazi talqinida yozuvchi individualligi

2.2 Obraz talqinida badiiy detalning o'rni

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, nasri tobora rivojlanib, shakllanib, o'z shakli va mazmuniga ega bo'lib bormoqda. Bunga ushbu davrda yaratilgan ko'p sonli hikoyalar va ular orasida saviya jihatidan baquvvat asarlar ham mavjudligini asos sifatida keltirish mumkin. Hikoyalarning milliy adabiyotimiz shakllanishidagi o'rnini hisobga olib, istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida "kichik odamlar" obrazini o'rganib chiqishni maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Mafkuraviy yakkahokimlikdan qutilgan o'zbek adabiyotida erkin ijod qilish, erkin fikr asosida mavjud jarayonga munosabat bildirish kuchayib bormoqda. Shuningdek, o'tayotgan davrda mafkuraviy yetuklikka erishish uchun ham yoshlar ongida millat qahramonlariga e'tirof va hurmat tuyg'ularini shakllantirish bugungi kun badiiy adabiyotining muhim vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Hikoyanavislikdagi yangilanish va o'zgarishlar jarayonini o'rganish, ularning saviyasini belgilash, ma'naviy qiyofasini tasvirlash, mustaqillik davrida badiiy adabiyotga kirib kelayotgan "kichik odamlar" obrazi bilan kitobxonlarni xabardor qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridandir. "Kichik odamlar" obrazi yoritilgan shunday hikoyalar qator iste'dodli adiblar ijodida mavjud bo'lib, uni bugungi tezkor axborot asrida mavjudligini bildirish, uning ma'naviy tomonlarini zamon bilan bog'liq jihatlarini o'rganish, obrazlar olami bilan tanishish va badiiyatini o'rganish, ma'naviy-axloqiy masalarning qo'yilishini o'rganish ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Bu masala bizning bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi dolzarbligini asoslaydi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Hozirgi o'zbek hikoyanavisligi taraqqiyotiga qisman nazar tashlash va undagi "kichik odamlar" obrazi talqinini va poetikasini, ularni boshqa obrazlardan farqli va o'xshash tomonlarini, ma'naviyat masalalarini ko'rib chiqish ushbu BMIning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish

mo'ljallangan:

- Ijodkorlar hikoyalarini tahlil qilish orqali “kichik odamlar” obrazini yaratishdagi individuallik masalasiga ahamiyat qaratish;
- “kichik odamlar” obrazning yuzaga kelish omillarini ko'rib chiqish;
- masala ifodasida badiiyatning o'rnini aniqlash;
- “kichik odamlar” obrazining xarakterlari talqinida ma'naviy-axloqiy masalalar ifodasini kuzatish hamda yozuvchi mahoratini asoslovchi badiiy unsurlarni aniqlashtirish kabilardan iborat. Bunda kompozitsiya unsurlarining qo'llanilishi, badiiy detal masalasi ham nazarda tutiladi.

BMIning o'rganilish darajasi. Adabiyotshunoslik ilmida doimo muhim sanalgan zamonaviy nasr, xususan, hikoyanavislik sohasidagi ijodkorlarning badiiy mahorati hamda uslub masalalari borasida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgani ma'lum. Biz o'rganayotgan istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida “kichik odamlar” obrazi talqiniga munosabat bildirilgan adabiy-nazariy manbalar anchagina. Bu haqidagi ayrim ilmiy va tanqidiy qarashlar Yo'ldoshev Q.ning «Yoniq so'z»¹, Rahimjonov N.ning “Istiqlol va bugungu adabiyot”², O'ljaboyev U.ning “Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi”³, Yo'ldoshev Q, Yo'ldoshev M.ning “Badiiy tahlil asoslari”⁴ kabi ko'plab tadqiqotlarida mavjud.

Ushbu tadqiqotimizda yuqorida ko'rsatilgan ilmiy va adabiy manbalarga tayanib, o'rganilayotgan masala yuzasidan o'ziga xos xulosalarimizni bayon etamiz.

BMIdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Mazkur bitiruv malakaviy ishining yangiligi shundaki, bu ishda adabiyotshunoslar tomonidan to'laqonli baholanmagan istiqlol davri o'zbek hikoyachiligidagi “kichik odamlar” obrazi atroflicha tahlilga tortilgan. Hikoyalardagi obrazlar talqini, masala ifodasi ham o'ziga xos yangilik. Chunki bu muammo yuzasidan ham yirik monografik shakldagi tadqiqotlarni uchratmadik. BMIda yozuvchi mahorati masalasi ham

¹ Yo'ldoshev Q.Yoniq so'z.-Toshkent.Yangi asr avlodi.,2006. - B 539.

² Rahimjonov N.Istiqlol va bugungi adabiyot.-Toshkent.,O'qituvchi,2017.- B 328.

³ O'ljaboyev U.Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi.-Toshkent.,Turon zamin ziyo,2017.- B 216.

⁴ Yo'ldoshev Q, Yo'ldosheva M.Badiiy tahlil asoslari.-Toshkent.,Kamalak,2016.- B 464.

asosiy muammo sifatida qo'yilgan va bunda hikoyalarning badiiylik jihatini o'rganish ham nazarda tutilgan.

BMIdan erishiladigan natija asosan “kichik odamlar” obraziga ma'naviy-axloqiy masalalarning qo'yilishini xarakterlar talqini va badiiylik misolida to'laqonli ravishda o'rganilishi va badiiy mahorat ifodasi talqiniga e'tibor qaratilganligidadir.

BMIning amaliy ahamiyati. Mazkur ish shu kungacha qator hikoyanavislarning ijodida “kichik odamlar” obrazini o'rganishdagi boshqa tadqiqotlardan farqli o'laroq hikoyalarda ma'naviy-axloqiy masalalarning qo'yilishini “kichik odamlar” obrazi talqini misolida yaxlit holda tahlil etilganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki ushbu muammo hali adabiyotshunoslikda to'laqonli va yaxlit holda o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotdan Sobir O'nar, Zulfiya Qurolboy qizi, Erkin A'zam va boshqalar ijodining mukammal shakldagi tavsifida, shu mavzudagi ilmiy tadqiqot ishlarida, bitiruv malakaviy ishlarida foydalanish mumkin.

BMIning o'rganilish obyekti. Tadqiqotning asosiy obyekti vazifasini istiqlol davri o'zbek hikoyachiligi, xususan, Sobir O'narning “Tarvuz”, “Tegirmonchining bolasi”, Zulfiya Qurolboy qizining “Xoliq amaki”, “Tafakkur”, “Qadimiy qo'shiq”, Erkin A'zamning “Aralashqo'rg'on”, “Bog'bolalik Ko'kaldosh”, Isajon Sultonning “TODD”, Ulug'bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” kabi hikoyalari va boshqa asarlar bajardi. Kichik odam obrazlarining individual xususiyatlari haqida ma'lumot berishga harakat qilindi.

BMIning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. HOZIRGI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA "KICHIK ODAMLAR" OBRAZI TALQINI

1.1 "KICHIK ODAMLAR" OBRAZINING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI

Badiiy adabiyotda inson timsoli o'ziga xos tarzda shakllangan. O'tmishga nazar solsak, nomdor va buyuk shaxslar obrazlari badiiy adabiyotda shakllanganligini ko'rish mumkin. Bunga Firdavsiyning "Shohnoma"si, Alisher Navoiyning "Saddi Iskangariy" asarlari qahramonlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Islomgacha bo'lgan turkiy xalqlar adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu davrda ham aksar obrazlar xudolar ("Xuastuanift"), hamda shahzodalar ("Shahzoda va bars") bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Keyinchalik badiiy adabiyot inson omilini asos qilib shakllantirdi. Ma'naviy-axloqiy muammolar aks ettirilgan asarlar shular jumlasidan. Buning yorqin misoli, XI asrlarda yaratilgan "Qutadg'u bilig", "Hibatul-haqoyiq" kabi asarlardir. XVIII-XIX asrlarga kelib o'zbek adabiyotida xalqqa nisbatan adolatsizlik kuchayganligi bois hukmdor va sarmoyadorlar hajv qilina boshlandi. Bu ham adabiy obraz tarixida alohida o'rin tutadi. "Milliy uyg'onish davrida mazlum va ma'rifatdan yiroq xalq timsoli shakllantirildi. Oddiy inson obrazini to'laqonli yaratish Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida namoyon bo'ldi va bu obraz tarixida alohida bo'g'inni tashkil qiladi"¹. Ko'rib turganingizdek badiiy adabiyotda yangicha bir obraz shakllandi. XX asrning 50 – yillariga kelib bu obraz o'z nomiga zid ravishda katta ishlarni bajara boshladi. Bunga Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan

¹ Mirhaydarov M, Rahimov Z, Jo'rayeva M. Adabiyot nazariyasi fanidan majmua. - Guliston, 2014. - B 33.

chayon” romanidagi Safar bo’zchi obrazini misol qilib keltirsak bo’ladi. U faol obraz sifatida gavdalantirilgan bo’lib, romanda uning ikkita bajaradigan vazifasini ko’rib o’tishimiz mumkin. Bizga ma’lumki Qodiriy Anvar ta’rifini o’z tilidan emas, balki roman qahramoni bo’lgan qiz tilidan tasvirlaydi. Albatta, bu obrazga o’zgacha ma’no baxsh etgan. Tanqidchi Matyoqub Qo’shjonov “Safar bo’zchi Anvar obrazi xarakterining ochib berilishiga xizmat qilgan”¹ligini “O’zbekning o’zligi” nomli tanqidiy kitobida aytib o’tib ketgan. “Mehrobdan chayon”ning “Jilovxonadagi bir janjal” degan bobida ajoyib manzara yaratilgan. Mulla Abdurahmon qarorgohda. Domla oldiga uning o’ziga o’xshagan ikki ig’vogar kelib qoladi. Namoz o’qish uchun vaqtliroq paydo bo’lgan Safar bo’zchi ham shu “ulfatga” sherik bo’ladi. O’sha vaqtlarda Qo’qon bo’ylab shov-shuv bo’lib turgan Anvarning bosh munshiylikka tayyorlanayotgani haqida gap ochilib qoladi. Uchta ig’vogar Anvarning madrasa ko’rmaganini vaj qilib sarmunshiylikka nomuvofiq ekanligini bildiradilar. Safar bo’zchi esa gapga aralashib Anvarni quvvatlaydi va quyidagi voqeani hikoya qilib beradi: “Minnatdorchilik bilan ikki bo’zni uzatdim: asti olsachi. “Yaktakka bo’zim bor, ketavuring”, deydi. Aqalli bittasini ham olmadi. Yana duo qilib bo’z bilan qaytdim. Farishta ham shunchalik bo’lar, deb o’ylab qoldim, Shukur so’fi! A, shunday yigit mirzaboshi bo’lmay kim bo’lsin, Samatboy. Ko’pni duosi ko’l deganlar, ishonmasanglar, ana taqsirimdan so’ranglar!”²

Ko’rib turganingizdek ushbu parchada kichik odam obrazi bo’lmish Safar bo’zchi, Anvar obrazining o’ziga xos jihatlari bilan kitobxonni tanishtiryapti. Nafaqat, tanishtiryapti, balki ko’rsatib ham beryapti. Bu uning romandagi dastl abki vazifasi edi. Bundan tashqari u Anvar, Ra’no va Sultonlilar o’rtasida maktub yetkazish, roman voqealarini bir – biriga ulashdagi vositachi vazifalarini o’tagan. Asta-sekin yetakchi obraz sifatida shakllanib kelayotgan kichik odam obrazi istiqloq davri adabiyotiga kelib, nafaqat sur’atini, balki siyratini ham namoyish etdi. Yozuvchilar o’z asarlarida, ularga ma’lum bir vazifa yuklabgina qolmasdan,

¹ Qo’shjonov M.O’zbekning o’zligi.-T.,

² Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon.-T.,

ularning o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, qalb kechinmalari bilan qiziq boshladilar. Shunday qilib adabiyotning yana bir qirrasini sirlilik qarini tark etdi. Ma'naviy olami komillik nuriga yo'g'rilgan insonlar obrazi haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining "Yoniq so'z" maqolalar to'plamida shunday deydi: "Milliy tafakkurda yalpi yangilanish boshlangandan beri ko'pchilik tomonidan anglab yetilgan va tan olingan haqiqatlardan biri shu bo'ldiki, odamning eng kichigi, eng ko'rimsizi, eng zabuni, eng noshudi odamdir. Yaratganning halifasidir va shu bois mukarramdir. Binobarin, badiiy adabiyot kichik odamning katta va chigal ichki dunyosidagi bepoyonlikni, turfalikni tadqiq etishi lozim"¹. Bu jarayon hayot zaruratiga ham aylandi. Hamda ushbu zarurat tufayli tanqidchi tili bilan aytganda: "Bir qator asarlarda sirdan qaraganda, ko'zga tashlanib turadigan jihati yo'q, hamma qatori, ammo botinida ulkan iztiroblar, ruhiy po'rtanalar mavjud bo'lgan "kichik" odamlarning ichki dunyosi mahorat bilan aks ettirilgan"² istiqlol davri hikoyalari vujudga keldi. Badiiy asar ma'lum bir davrning asosiy g'oyasini tashiydi, ilgari suradi, unga singdiradi. Ijodkor bu xususiyatni o'zida mujassamlashtiruvchi shaxslar, ya'ni davr qahramonlari orqali yuzaga chiqaradi. Badiiy asar syujetidan o'rin olgan barcha voqealar silsilasida harakat qiluvchi xarakterlar shu tariqa yuzaga keladi. Adabiyotshunos olim Isajon Sulton badiiy xarakter haqida so'z yuritarkan, quyidagi nazariy qarashlarni qayd qilgan: "Xarakter kishilarning ma'lum toifasiga xos xususiyatlarni ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi"³.

Umumiy nom bilan aytganda, kichik odam deya talqin qilinayotgan obrazning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari haqida fikr yuritganda dastlab, ularning oddiy xalq vakili ekanliklarini aytib o'tishimiz lozim. Ushbu obrazning asosiy tarkibini bor

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z.-T., Yangi asr avlodi, 2006.- B 84.

² O'sha manba.

³ E-mail:til@sarkor.uz kutubxonasi. Xarakter va ruhiyat birligi.-T., Kamalak, 2005.- B 44.

mehrini va umrini yerga bergan, bu xizmati bilan nafaqat o'z oilasini balki, butun jamiyatni boqib kelayotgan dehqonlar, tegirmonning og'ir, zalvorli toshini aylantirish bilan bir qatorda hayot sinovlarini-da yengib o'tayotgan tegirmonchilar, qorovullar yoki undan-da kichik toifa vakillari tashkil etadi. Ularning kichikligi ham shunda! Jussasi yo, yoshida emas! Fikrimiz isboti sifatida Zulfiya Qurolboy qizining "Xoliq amaki" deb nomlangan hikoyasidagi kichik odam obrazi sifatida gavdalangan Xoliq amakining ijtimoiy ahvoriga e'tiborimizni qarataylik: "Ha, Xoliqboy, yo'l bo'lsin?-" dedi u yaqinlashganida kinoya bilan atay "boy" so'ziga urg'u berib.

-Bozorga.

-Tunov kuni men nima degan edim senlarga?

-Bolalarning potinkasi yirtilibdi. Anorlar pishgan ekan, xotin...

-He, o'sha xotiningniyam... Anor – panori bilan boshiga tushurmadingmi? Davlat siyosatini tushunmaydigan qanaqa g'alcha xotin?

Ikki soatda qaytaman, rais bova. Bolalar yalangayoq..."¹

Ha, Xoliq amaki farzandlari oyog'iga potinka olib berolmagan, ayni damda daromad manbayi faqat shu anorlarigina bo'lgan, kichik bir dehqon, ijtimoiy ahvoli og'ir "sho'rlik banda" edi. Bu fikrimizni rais tilidan aytilgan qo'shtirnoq ichidagi "boy" so'zi ham isbotlaydi. Bu obrazning o'ziga xos yana bir xususiyatlaridan biri yaqinlari ehtiyojini, o'z jonidan-da ortiq ko'rishlaridadir. Xoliq amakining anor to'la qopni goh ko'tarib, goh tushirish jarayoniga e'tibor berar ekanmiz, qopni ko'tarishida kutilajak falokatdan qutilib qolish holati kuzatilsa, uni yana yerga qo'yish jarayonida farzandlar ehtiyoji yotardi. Axir, qopdagi shunchaki anor emas, balki dehqon dardiga davo atalmish, birdan-bir daromad manbayi edi.

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -T., O'zbekiston, 2012. - B 190.

Endi navbatdagi qahramonimizga, Sobir O'narning "Tarvuz" hikoyasidagi Omondavlat obraziga, e'tibor beramiz. U ham boshqa kichik odamlar singari ota kasbini davom ettirgan, oddiygina bir dehqon. Fikrimizni Omondavlatni faqat moddiylik yuzasidangina bir-biri bilan muomala qiladigan, jamiyatimizning "katta odam"lari bilan bo'lgan suhbatini keltirish orqali dalillaymiz.

- "Bug'doy bor, jo'ra. Hozir arzon, qishda ko'tariladi narx, o'shanda urib yuboraman. Gap bor-da, bilding?"
- Bildim-bildim. Demak, bir millionga sotasan?"
- Balki ikki million bo'lar, ko'ramiz.

Qishloqi mehmon ham toza o'lar-qolar joyda emasligini ko'rsatgisi kelib tillari biyron bo'ldi. Shunday qilmasa bular odam qatorida ko'rmay garang qilaveradigan"¹. Shu kabi inson ruhiga zavq-shavq berishdan yiroq bo'lgan suhbatlardan zerikkan Omondavlatning bolalik xotiralarini eslash jarayonini ham bir ko'zdan kechiraylik:"Chog'roqqina hovlisiga har bahor bodring, pomidor bilan qo'shib o'n-o'n besh tup handalak-u qovun ekkanlari, ular taqyo palak qilib keyin uzun palak otib ketishi, so'ng yong'oqdek tuynak qilishidan to rangi bo'zarguncha bir hovli bola dam-badam "ko'z -quloq" bo'lib: goh ushlab, goh burunlarini tekkizib hidlayverishgani sabab onasi bezor bo'lib quvganlari, - hamma-hammasini zavq bilan eslaydi. Bearmon bolalikning armon to'la izlari bular"². Ko'rib turganingizdek, bu qahramonimiz ham soddagina dehqon, mehnatsevar yurt farzandi.

Erkin A'zamning "Aralashqo'rg'on" hikoyasidagi kichik odam obrazi hisoblanmish musofirning ham kasbi qarovulligi, kichik odam obrazining xarakterli xususiyatlaridan biri ularni jamiyatda kichik bir o'rinni egallaganliklarida deya ayta olishimizga zamin yaratadi. Musofirning kasbiga jurnalist E.Safar tilidan quyidagicha ta'rif beriladi: " Ota bolam-chaqam deb erta-yu kech to'rva ko'tarib

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.O'.Sobir.Tarvuz.-T.,Kamalak,1993.- B 5.

² O'sha manba.

poy-piyoda bozorga qatnagani qatnagan. O'zi bor-yo'g' manavi sanatoriyga qorovul. Pulni qayerdan toparkan-a?"¹ Unga, asosiy vaqtini kimni qanday pul topgani, qayerga qanday kelib qolgani va mahallaga qanday nom berish kabi baxslar bilan o'tkazadigan jamoa tomonidan beriladigan navbatdagi ta'rif: "Hamisha shunday: salomini beradi-da, o'tadi-ketadi. Ko'chib kelganiga bir yillardan oshgan, ammo mahallaga aralashmaydi. Aralashgulik holi ham yo'q-musofir-da"². Aslida "musofir" so'zi boshqa Vatanda, yoki boshqa hududda faoliyat yuritayotgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi, ammo bu yerda, bu jumla u ma'nodan tashqari qahramonimizning kambag'alligiga ishora sifatida ham yangramoqda. Musofirimizning tavoze-ila ularga salom berib, yana o'z ishida davom etishi, hamda ularga qo'shilmasligi kambag'alligidan emas, balki amalda o'z isbotini topmas gaplar uchun gaplar uchun qimmatli vaqtini sarflashni joiz ko'rmaganligida. Atoqli qozoq shoiri Abay bekorga "Naqliya so'zlar" kitobida: "Ko'nglingdagi ko'rkam o'y og'zingdan chiqqach xiralanadi"³, - deya aytib o'tib ketmagan. Demak, qahramonimiz nafaqat sanatoriyaga qorovul, balki inson vujudining botinida, qalbdan yashab kelayotgan insoniy tuyg'ularining ham qorovuli ekan! Ushbu, odamning odamiyligini ta'min etuvchi tuyg'ularni jismni tark etishiga yo'l qo'ymayotgan ekan-da! Kichik odam obrazining bu kabi xarakterli xususiyatini Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur" hamda Sobir O'narning "Tegirmonchining bolasi" hikoyalarida ham uchratishimiz mumkin. Kichik odam obrazining navbatdagi xarakterli xususiyati shu tipga kiruvchi qahramonlarning indamasliklaridir. Kimdir hayoti o'zgalar hayotida zarracha ahamiyat kasb etmagani uchun shu yo'lni tutgan bo'lsa, yana kimdir andisha yuzasidan shunday qiladi. Biz kichik odam obrazining o'zlariga xoh jismoniy, xoh ma'naviy tomondan yetkazilgan zararga nisbatan xech qanday javob bermaslik lari zamirida qo'rqqoqlik alomatlarini ko'rmasligimiz kerak "Talqin etmoq-ochiq mazmundan yashirin mohiyat sari

¹ A.Erkin. – B 33.

² O'sha manba.

³ Adabiyot.-T., Cho'lpon, 2013.- B 67.

bormoqdir”¹,- deydi fransuz olimi Pol Rikyor. Shunday ekan, aziz kitobxon kelimg, oshkora matndan yashirin mazmun sari boramiz: “Onamning aytishicha, bir kuni Xoliq amaki Norto’xta degan qo’shnisi bilan suv talashib qopti. O’sha kuni amaki ham, qo’shnisi ham tomarqasini sug’orayotgan ekan. Norto’xtaning hay-haylashiga qaramasdan, Xoliq amaki suvni o’zi tomonga burib olaveribdi. Navbat uniki ekan-da. Jahli chiqib ketgan Norto’xta ketmon dastasi bilan amakining naq yelkasiga tushiribdi. Xoliq amaki “ih” debdi-yu, ariq ichiga cho’kkalab qopti. “Qachondan beritiling chiqib qoldi?” deb baqiribdi haligi qo’shni. Vaholanki, Xoliq amaki lom-lim demagan ekan”². Qo’shnisining ushbu jumlasini orqali Xoliq amaki nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham uning manfaatlariga zid hatti – harakat qilsalar-da shu paytgacha ularga indamaganligini bilib olishimiz mumkin. Endi muallif tomonidan: “Vaholanki, Xoliq amaki lom – lim demagan ekan”,- degan jumlaning matndagi mazmun bilan uyg’unlashtiradigan bo’lsak, chindan ham Xoliq amaki Norto’xta qo’shnisiga og’iz ochib biror so’z aytmagan. Faqat suvni navbatga binoan o’z tomoniga burib, umrida birinchi bor (qachondan beri) o’z galar manfaatidan o’z manfaatini ustun qo’yib xaqqini talab qilishi, uning “tili chiqib qolgan”ligi edi. Demak, qahramonimiz o’z galar uchun, ularning manfaati yo’lida tilidan chiqadigan so’z va biligidan chiqadigan kuchdan ko’p bora voz kechgan ekan. Aynan shunga o’xshash holatni Sobir O’narning “Tarvuz” hikoyasida ham uchratishimiz mumkin. Kichik odam obrazi sifatida gavdalangan Omondavlat qishloqdan bola – chaqasi bilan shaharga biznesmen o’rtog’ini qizli bo’lganligi bilan tabriklash uchun kelib, ular huzuridan ketish chog’ida olib kelgan tarvuzlarini axlatxonada ko’rib, bunga javoban qilgan ishiga e’tibor bering:

- “Sapuvra, bo’ldi, ketavering. Biz kimligimizni endi bildik. Sizlarni ham. Tamom. Xo’p. Xayr. Rahmat.

¹100 mumtoz faylasuf.-T.,Yangi asr avlodi,2013.- B 99.

²Zulfiya Qurolboy qizi.Qadimiy qo’shiq.-T.,O’zbekiston,2012.- B 191.

Shundoq deb oldinga o'tib ildamroq yurib ketdi. Bir xayol yana ortiga burilib, jillaqursa bir achchiq gap aytgisi keldi-yu, umrbod teskari bo'lib qolishdan cho'chib to'xtamay ketaverdi"¹. Katta odam bo'lishiga qaramay insoniylikni yo'qotgan shaxs uchun , odamgarchilik qilayotgan kichik odamni ko'rib unga taqsinlar o'qigingiz keladi. Uni ko'nglidan kechayotgan so'zlar, tanangizda urayotgan bir parcha go'shtni teshib o'tgandek bo'ladi.

“Istiqlol adabiyoti chinakamiga ijodkor adabiyotdir. U tipik odamni emas, balki alohida o'ziga xos va betakror odamni tipni tasvir etadi. O'quvchi o'sha hammaga o'xshamagan, alohida odamni tushunish mobaynida o'zgani anglay boradi. O'zgani tushunish esa, o'zini tushunish sari qo'yilgan dastlabki qadamdir”² Kichik odam obrazini yanada teranroq anglash va tushunishga qaratilgan harakatlarimizni davom ettiramiz. Istiqlol davri o'zbek adabiyotida kichik odam obrazi ko'z oldimizga keltirar ekanmiz indamas, jamiyatda kichik yoki hech qanday mavqega bo'lmagan ammo harakatdan charchamaydigan, tinimbilmas inson ko'z oldimizga keladi. Yunon faylasufi Aristotel tabiri bilan aytganda: “Hech narsa tasodifan sodir bo'lmaydi. Biz tasodif deb ataydigan hamma narsaning ham o'z sababi bor”³. Shunday ekan, bizning kichik odamlarimiz ham shunchaki tasodif tufayli oddiy kasb egasi maqomida qolib ketayotgani yo'q. O'zidan ko'ra ko'proq o'zgalarni o'ylash fazilatlarini ularni shu “martabaga” erishtirgan. Falsafiy, hayot haqiqatlariga tayangan holda fikrlab ko'radigan bo'lsak, bu fazilatlarini ularni doimiy harakatda bo'lishini ham talab etadi. Bu harakatlar qaysidir ma'noda o'zgalar uchun kuyunish alomati bo'lsa, yana qaysidir ma'noda yashash uchun kurash hamdir.

Xuddi shunday kurash asnosida umr bo'yi tinim bilmagan, Isajon Sultonning “TODD” hikoyasi qahramoni navbatdagi kichik odam obrazi bo'lmish Mamasiddiq

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi, O'. Sobir. Tarvuz.-Toshkent., Kamalak, 1993.- B 5.

² Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z.-Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006.- B 132.

³ 100 mumtoz faylasuf.-Toshkent., Yangi asr avlodi, 2013.- B 99.

pishshiq bilan uning o'g'li tomonidan berilgan ta'rif orqali tanishib chiqamiz: "Esimni taniganimdan beri otam tinmasdan ishladi. Men-ku mayli, ukalarim deyarli otamni ko'rmas edilar. O'ylab qaragam, otam lagerlardagina emas, butun umri davomida shunaqa yugurib yashabdi. Kechani kecha, kunduzni Kunduz demabdi. O'ziga qaramabdi. Bolam debdi. Ro'zg'orim debdi..."¹ Hayot! Hayot shunday murakkab narsaki, uni sizga rizq berib turuvchi tegirmonini doimiy aylanib turishi uchun harakatda bo'lishingiz lozim. Bu harakat sizning vaqtingiz, jismoniy quvvatingiz va hattoki umringizni ham so'rib oladi. Na iloj, bu yuqorida aytib o'tganimizdek hayot uchun kurash, hayot haqiqati – bu! Shu o'rinda beixtiyor yozuvchi O'tkir Hoshimovning haqiqatga bergan ta'rfi yodingizga tushadi. U: "Haqiqat shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi"², - degan edi. Mamasiddiq pishshiq davosiz dardga yo'liqqan edi. Umrining oxirini ham hatto harakatga sarfladi. Istiqloq davri o'zbek adabiyotidagi kichik odam obrazlari ichida yaqinlari rohati yo'lida o'z kasalligini unutganlari ham bor. Ular hayotining davomiyligi uchun zarur bo'lgan boylukni-da, yaqinlari farog'ati uchun sarflaydi. Xuddi shunday xislatga ega bo'lgan shaxslardan biri Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" deb atalgan hikoyasidagi kichik odam obrazlaridan biri – Yunus tog'a. Kelini "G'uborsiz odam" ,- deya atagan shaxsga o'limidan so'ng qizi tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor beraylik: "Bizni deb, shu landavur, omadsiz besh bolasini boqaman deb o'tib ketdi. O'ziga yengil – bosh olish u yoqda tursin, kasal oyog'iga aqalli bir quti dori ham sotib olmadi, tushunyapsizmi Kozim aka, ololmadi... Birining shartnomasini to'layman dedi, boshqasining imoratiga taxta olay deb, o'risga ketgan o'g'lining esa ro'zg'origa un – yog' qip beray deb, nogironlik nafaqa puligacha ularga ilinib yurdi. Do'xtirlar "Yotib davolaning desa ham ko'nmadi"³. Qaysidir farzandini shartnomasini to'lash, qurulish

¹ S.Isajon.Boqiy darbadar.-Toshkent.,O'zbekiston,2001.- B 157.

² Hoshimov O'.Daftar hoshiyasidagi bitiklar.-Toshkent.,Sharq,2015.- B 63.

³ www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug'bek.Uzoqdagi Dilnura.-Toshkent.,Kamalok,2009,mart-aprel.- B 32.

ashyolarini sotib olib berish, ro'zg'origa un – yog' olish uchun oddiy xalq vakili qanchalik peshona teri to'kishi kerak. Bu ham kamlik qilgandek ular uchun o'z jonini qurbon qilishi-chi... Ularning ham ma'nan, ham jismonan yaqinlari uchun qilgan harakatlarini ko'rib, Odam Atoning shu kabi farzandlariga tasannolar aytasiz, o'zingizni esa bir muddat savolga tutmaslikni iloji yo'q. Bunday o'lim toppish dard emas, balki baxt! Rus mutafakkiri P.Y Chadayev: "Siz baxtli bo'lishni istaysiz-ku, axir. Bas, shunday ekan, shaxsiy farog'atingizni imkon qadar ozroq o'ylangda, o'zgaralar uchun kurashing. Bittaga mingta qarshi chiqqan holda garov o'ynab aytishim mumkinki, shunda siz bu olamda mavjud bo'lgan eng yuksak darajadagi saodat lazzatidan bahramand bo'lasiz"¹, - deganda nechog'lik aq ekan. Bir so'z bilan aytganda qahramonlarimizning jamiyatda kichik bir o'rinni agallashlari, indamasliklari, o'zgaralar uchun kuyib yonish hamda umr yo'lidagi tinib – tinchimasliklari kabi fazilatlarini umumlashgan holda istiqloq davri o'zbek adabiyoti nasrida kichik odam obrazining xarakter – xususiyatlarini tashkil etadi.

¹ 100 mumtoz faylasuf.-Toshkent., Yangi asr avlodi, 2013.- B 386.

1.2 Ushbu obrazning yuzaga kelish omillari

Xoh, bir kichik hikoya bo'lsin, xoh, katta roman barcha asarlarni tahlil qiliishda, albatta, zamon ruhidan kelib chiqib yondashish kerak. Chunki qo'lingizdagi asarda o'sha davr muhiti, yutuq va kamchiliklari, insonlarining qalb kechinmalari hamda hayotiy orzulari aks ettirilgan bo'ladi. Istiqlol davriga kelib xalq hayotini turg'unlik ma'lum bir darajada tark etib, o'z o'rnini sezilarli ravishda rivojlanishga bo'shatib berdi. Insonlar hayotida o'qish, intilish, tadbirkorlik kabi tushunchalar asosiy o'rinni egallay boshladi. Shubhasiz, bu quvonarli hol. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek, jamiyatimizda katta bir mavqega ega bo'lgan, ammo ma'lum bir marrani zabt etgandan so'ng, asli kelib chiqishini unutgan, insoniylikdan yiroq insonlar ham yo'q emas. Bu kabi insonlarni hayoti davomida topganlaridan, yo'qotgan narsalari ortiqroq ekanligini biz kitobxonlarga uqtirish uchun, "inson ruhining muhandislari"¹ kichik odam obrazidan unumli ravishda foydalanadilar. Ushbu obraz asarlarda asosan odamiylikni, asl insonlarga xos bo'lgan ma'naviyatni bayroq qilib ko'targan holda tasvirlanmoqda. "Marks odamni olijanob qilmoq uchun yashayotgan jamiyatni insoniy qilib qayta qurish lozimligini aytgan bo'lsa, endilikda odamni yaxshilamay turib, jamiyatni yaxshi qilish mumkin emasligi ayon bo'ldi. Yoki shoir aytmoqchi, "Odam tuzalmasa, olam tuzalmas". Bu shunchaki hikmatomus gap emas. Komillik yo'lga kirgan chin inson har qanday bo'g'iq muhitda ham o'ziga gard yuqtirmay pokligicha qolabilishi lozim"². E'tibor bilan qarasangiz, istiqlol davri o'zbek adabiyotida kichik odam obrazining ma'naviy fazilatlarini, katta odam obrazlarining illatlariga qarshi qo'yilgan holda ochib berilgan. Bunday hikoyalarga misol tariqasida "Tarvuz" hikoyasini keltirishimiz mumkin.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent.,Ma'naviyat,2008.- B 136.

² Yo'ldoshev Q.Yoniq so'z.-Toshkent.Yangi asr avlodi,2006.- B 84.

Hikoyaning bosh qahramonlari qachonlardir yaqin sinfdosh, hamqishloq bo'lgan Xudoyqul (katta odam obrazi) va Omondavlat(kichik odam obarzi) hisoblanadi. Muallif o'quvchiga ularni qachonlardir sinfdosh ekanligini Xudoyqul tilidan xotini Sapuvraga gapirish jarayonida quyidagicha keltirib o'tadi: "...eng yaqin sinfdoshim shu Omondavlat bo'lsa, undanam qaytmaydi"¹. Omondavlat ham shu sinfdoshini judayam hurmat qilganidanmi, yoki odamgarchilikdanmi qizli bo'lganligi bilan tabriklash uchun oila a'zolari bilan keladi. Do'stini hamon o'ziga yaqin ko'radi. Buni isboti sifatida do'stini kutib, uxlab qolgan Omondavlatning u bilan ko'rishishiga e'tibor beraylik: "Allamahaldan so'ng o'rtog'ining kelib turtishidan uyg'ondi. Sapchib turib quchoqlashib ko'rish ketdi"². Inson yaqinini ko'rgandagina "sapchib turishi" hamda u bilan qo'l uchida emas, balki "quchoqlashib" ko'rishishi mumkin. Demak, Xudoyqul Omondavlat uchun qadrli inson! Lek o'tmishdagi sinfdoshlar, xatto, Omondavlat ham u uchun zarracha ahamiyatga ega emas. Moddiylik xususidagi suhbatdan zerikkan, insonning insoniy tuyg'ulari, bolalik xotiralari haqida do'sti bilan o'rtoqlashishni istagan Omondavlat tilidan keltirilgan jummalarga e'tibor beraylik: "Sinfdoshlarining ahvolidan so'zladi. Ikki oyda bir marta yig'ilib turishlari, yig'ilganda uch kilo go'shtning pulidan gashtak pul yig'ishlarini aytib, sen ham qo'shilsang o'tirishga, bolalar Xudoyqul bizlarni mensimay ketdi deb yuribdi, bir minnatdan qutulasan, dedi. Xudoyqulning ensasi qotdi. Yo pulni, yo do'stlarini mensimaganday bo'ldi"³. Bizningcha, moddiylik jihatidan o'ziga va o'ziga o'xshaganlarga o'xshamagan do'stlarni mensimadi desak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki u kabi insonlar hayotida moddiylik ustun. O'zgaralar bilan bo'lgan munosabatdan ma'lum bir manfaat kutgan Xudoyqul (uyam ertan-mertan bojxonada ishlaydigan Qobilning oldiga o'tish haqidagi o'zining mas'uliyatini

¹ www.ziyouz.uzkutubxonasi.O'.Sobir.Tarvuz.-T.,Kamalak,1993.-B5

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

anglagach, ikki sherikka, aniqrogʻi, mehmonlarning guliga takallufni davom ettira berdi), yaqin sinfdoshi Omondavlatning samimiy munosabatiga toʻgʻri baho bera olmaydi. Katta odamning :” Bola-chaqa bilan bordi – keldi qilish durustroq boʻladi, qalinlashish shundan boshlanadi, xotinlar ham, bolalar ham bir- birining otini aytib eslab turushi yaxshi gap”¹, - deya tashrif buyurgan doʻstiga nisbatan “katta oʻylari”ni qarang: “Omondavlatning qishloqdan qoʻngʻiroq qilib indinga bola-chaqasi bilan kelishini eshitib Xudoyqulning ensasi qotdi, nechukdir miyasiga lop etib buyam pul soʻrab keladi, boʻlmasa besh-olti yildan beri koʻrishmagan sinfdoshga balo bormidi, degan oʻy urildi. Koʻngli xijil tortib, kelmasayam oʻpkalimas edim dedi”². Katta odamlarning oʻzi singari oʻylari, kichik odamlar qalbidagi buyuklik oldida zarra misoli. Balki shuning uchundir yuksak tuygʻularni koʻra bilmaslik sababi. Axir, barcha oʻz darajasidan kelib chiqib atrofga baho beradi. Hikoyada maʼlum bir mansab, ish oldidagi burchlardan koʻra insoniylikni ustun deb bilgan, inson qadrini oliy qadryatga aylantirgan Omondavlat singari kichik odamlar obrazi ham bor. Ularning maʼnaviyatli dunyosi, insoniyligi quruqshagan katta odamlar obraziga zid qoʻyilgan holda ochib beriladi. Ularni dastlabki toʻqnashishiga eʼtibor bering, bolasi uyni biroz toʻzitgani uchun jahli chiqqan Xudoyqul Omondavlatga qarata : “- Jon joʻra oyogʻingdiyam, naskingdiyam yuvib kel vannaga borib”³, - degan gapi uni koʻngliga nechogʻlik ogʻir botmasin, bu voqeadan ham yaxshilik qidiruvchi soddadil qahramon: Balogʻatga yetganidan beri bunaqa dashnom eshitmagani uchunmi, koʻngli singandek boʻldi. Ammo keyinroq picha gʻashligini bosib, shaharda uylar tor, shuning uchun oʻzimga sezilmagan ter hidi uyga taralgan chiqar, begona boʻlsam betimga aytarmidi deb oʻylab qoʻydi”⁴. Muallif tomonidan bu holatga : “Chamasi oʻziga shunday deb tasalli berdi”⁵, - deya taʼrif beriladi. Bu esa har bir voqeadan

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi, Oʻ. Sobir. Tarvuz.-Toshkent., Kamalak, 1993.- B 5.

² Oʻsha manba.

³ Oʻsha manba.

⁴ Oʻsha manba.

⁵ Oʻsha manba.

hikmat, ya'ni yaxshilik qidiruvchi, ko'ngli pok o'zbekning asl ko'rinishi emasmi? Bundan tashqari qahramonimiz Olloh berganiga shukur qiluvchi, soddadil insonlar xususiyatlarini ham o'zida mujassam etgan obraz. Yuqorida aytib o'tganimizdek Xudoyqul fikr-u zikri mol-dunyo orttirish bo'lgan, tilida "pul topish ancha mushkul bo'lib ketgani, birovga bergan pulingniyam, molingniyam qaytib olish o'limdan og'irligini"¹ aytib to'xtamaydigan – katta odam. Uning nazdida, u kabi mol-dunyo orttirmagan go'yoki, Omonqul "kichik odam"lardan – biri. Omonqul - boriga shukur qilishni biladi, hatto, do'stini ham bunga da'vat etmoqchi bo'ladi. Harholda, u do'stining gaplaridan so'ng "hayron bo'ldi, uyning har tarafi yaltirab turushi, televizor, mebellarning bahosini o'ylagan bo'ldi, hovli qurayotgani, qanaqadir chet el mashinasini minib yurganini eshitgan, miyasining bir chekkasida hammasi g'imir-g'imir e'tirozlar uyg'otib, noshukur bo'lmaslikka da'vat qilmoqchi bo'ldi-yu"² andisha yo'l qo'ymadimi, yoki birovning dilini og'ritish, xullas, aytmadi. Suhbat davomida dehqonning bir necha oylik daromadi hisoblangan o'n besh ming so'm, shaharliklar uchun bir kunlik ham daromat manbai emasligini Xudoyquldan eshitgan qahramonimiz holatiga e'tibor bering: "Omondavlat "yog'-e" deya televizordan ko'zini uzib jo'rasiga qaradi, ishonish-ishinmaslikni bilmadi"³. Omondavlatning do'sti gapiga ishonib, ko'rayotgan narsasini-da unitgan holda u tomonga tikilishi, uning nechoglik soddaligidan dalolat bersa, bu holat shunchalik lablarning samimiy jilmayishiga ham sababchi bo'ladi. Bolalikdagi do'stining uyiga Omondavlatni sog'inch, bolalik xotiralari yetaklab kelgan edi. Endi u : " Bu kishi oldingi qadrdon sinfdoshi emas, tamom begona odamga aylanib bo'lganini his eta boshladi, afsuslanishini-da, begonasirashini-da bilmadi. Bilgani shu bo'ldiki, ayni kezda o'zi ham, bola-chaqasi ham ortiqcha ekan"⁴. Soxta tabassum, manfaatga

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi, O'. Sobir. Tarvuz.-Toshkent., Kamalak, 1993.- B 5.

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

⁴ O'sha manba.

qurilgan munosabatlar ustunlik qilgan mezbon uyiga Omondavlat singari odamlar ortiqchalik qilishi mumkin, ammo butun olam, kurrai zamin bu kabi ma'naviyatli shaxslarga hamisha muhtoj. Muallif tili bilan aytganda ular baxtni billur qadaxlardagi mayda deb bilmaydi. Ular: "Qishloqning to'yida yelim va spool piyolalarda vino ichib xursand bo'lib yurgan"¹, - baxtini birlikda deb biluvchi shaxsdir.

Ming afsus bilan e'tirof etishimiz mumkinki, istiqlol davri odamlari erishgan yutuqlari bilan bir qatorda "KATTALIK" kasaliga ham yo'liqmoqdalar. Azizlarim, agar, ushbu kasallik sizning ham vujudingizni kemira boshlagan bo'lsa, darrov undan xalos bo'ling. Umr yo'lida baxt, asl zavq izlab sayohatga chiqqan sayyoh ortiqcha yuklardan xalos bo'lmog'l lozim. Yo'qsa, u yuklarning o'zi seni baxting va hayoting lazzatidan mahrum eradi. Unutma, dunyoni tutib turgan serbargli azim chinor emas, balki uni-da hayotligini ta'minlovchi, ne'mati beminnat – tuproq!

Gap inson uning ma'naviy olami xususida ketayotgan ekan, beixtiyor Ulug'bek Hamdamning ushbu jumalari yodingizga tushadi: "Inson mantiq farzandi. Bas, ichimizga azaldan joylashgan mantiq bizni yorug'lik, ezgulik, adolat va yaratishga undaydi. Aslo zulmat, yovuzlik, g'irromlik va buzg'unchilikka xizmat qilishga chorlamaydi"². Ana shunday mantiqqa ega, qalb amri bilan ish tutuvchi kichik odam obrazlaridan biri Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" qahramonlaridan biri Yunus tog'a edi. Yunus tog'adagi barcha kichik odam obrazlarida bo'lgani kabi o'zidan ko'ra ko'proq o'zgalarni o'ylash, ular uchun kuyukuvchanlik kabi fazilatlar barcha insoniyat uchun ko'zgu vazifasini o'taydi. Tog'aning o'zga hududdan o't o'rishgani uchun jiyani yuziga tushirilgan tarsakidan so'ng qanday ahvolga tushganiga e'tibor beraylik: "Hamma yog'l jiqqa ho'l bo'lgan Yunus tog'a suvdan

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi, O'. Sobir.Tarvuz.-Toshkent.,Kamalak,1993.- B 5.

² H.Ulug'bek.Ruhni uyg'otguvchi so'z.-Toshkent.,Turon zamin ziyo,2017.- B 160.

chiqa solib, Dadaxonga tashlandi: “Meni ursang, ur, lekin bolaga nega qo’l ko’tarasan, nomard”. Dadaxon kichik va oriq jussali Yunus tog’ani azot ko’tarib oldi-yu suvga yana shaloplatib otib yubordi.

- Ah!.. deya qichqirib yubordi tog’a”¹

Og’riq azobi , dard zahmidan o’zi uchun shu birgina so’zni tilidan chiqardi xolos. Shunday ahvolida ham u jiyanini o’ylardi: “Yomon urmadimi seni? – so’radi tog’a ayiq qiyisiga tirmashib chiqarkan”². Jiyan ahvolidan havotirlangan tog’a, o’roq ustiga tushib jarohatlangan oyoq og’rig’ini ham sezmas, sezsa ham parvo qilmasdi. Tog’aning beparvoligi joni og’riq sezmasligidan emas, yaqinini azobga qo’ymaslikdan edi. Agar bunday bo’lmaganida edi biroz fursatdan so’ng bu holat tog’aning hushidan ketishi bilan tugamas edi. O’zgalar uchun kuyikish, o’zidan ham, hatto o’z jonidan ham ularni halovatini aziz deb bilish ko’rib turganingizdek Yunus tog’a singari kichik odam obrazlariga yot. O’tkir Hoshimov tabiri bilan aytganda: “Oyog’i yerdan uzilmagan”³ ma’naviy qiyofasini saqlab qolgan odan edi – u. Yara qorasonga aylangach, doktorlar bir oyog’ini kesib tashlagandan so’ng, ushbu yara hayotiga zomin bo’lishini bilgan tog’aning jiyanini bilan bo’lgan suhbatiga e’tibor bering:

“- Mayli, men birortasidan yuboraman, xavotir olmang, -Kozimjon gapni shu ohangda gapirdiki, tog’a jiyanining judayam shoshib turganini tushundi.

- Kechir jiyan, ishingni ko’pida seniham tashvishga qo’ydim... - siniqib uzrxonlik qidi Yunus tog’a...

- Hechqisi yo’q, tog’a, tuzalib keting... Lekin kozimjonning ishi ko’p emasmi, qishloqa pul yuborishni unutmadi o’shanda... Tog’a bo’lsa... tog’a boshqa telefon qilmadi...”⁴ Hatto, o’limi arafasida ham jiyanini halovatini o’ylab , uni qimmatli

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug’bek.Uzoqdagi Dilnura.-Toshkent.,Kamalak,2009,mart-aprel.- B 32.

² O’sha manba.

³ Hoshimov O’.Daftar hoshiyasidagi bitiklar.-Toshkent.,Sharq,2015.- B 5.

⁴ www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug’bek.Uzoqdagi Dilnura.-Toshkent.,Kamalak,2009,mart-aprel.- B 32.

vaqtini olmaslik uchun, davlati lim-lim bo'lib yotgniga qaramay uni bezovta qilmadi, indamay bu olamdan ko'z yumdi. Yunus tog'a kambag'alchilikda bor-yo'g'I ellik, ellik besh yil umr ko'rgan bo'lsa-da, u bashariyat insonlari uchun odamiylik haykali bo'lib qoldi. Bor - yo'g'ini jiyaniga ilingan tog'aning boshiga dard tushganini bilib turib arzimagan ishlar tufayli "Johil bo'lib yashagandan qashshoqlikda yashash a'loroqdir,- deydi Aristipp. – Chunki qashshoqlar puldan, nodonlar esa odamgarchilikdan mahrumdirlar"¹

Yuqorida biz kichik odam obrazlarining axloqi bilan tanishish orqli ma'naviy olamimizni boyitib oldik. Biz kitobxonlarga ma'naviy saboq berishda Zulfiya Qurolboy qizi o'zining "Xoliq amaki" hikoyasida kichik odam obrazidan o'zgacha bir usulda foydalanadi. Ya'ni, kamsuqum, oddiy xalq vakili bo'lgan Xoliq amakini, negadir hech kim qadrlamaydi, hatto hurmat qilmaydi. Bu holatga muallif quyidagicha ta'rif bergan: "Qishloq ahli teng-to'shlari, hatto bolalar ham uni pisand qilmasligini aniq bilaman. Negadir hamma til-zabotli jonzod borki, o'zini yuqori tutib muomala qilardi. Bolalar ham unga salom berishga erinishardi"². Qishloq ahli Xoliq amakini hurmat qilishi u yoqda tursin, ko'proq tazyiq o'tkazishganiga (Narziqul rais, Norto'xta qo'shnisining unga qilgan zulmi bilan yuqorida tanishgan edik) guvohi bo'lganmiz. Ayniqsa ko'cha bezorilari bilan bo'lgan munosabat, inson dilini o'rtab, tuyg'ularini jumbushga keltiradi. Ular qaysidir mish-mishga tayangan holda Xoliq amakiga qo'l ko'tarish darajasiga ham borishadi. Voqeaning asl kelib chiqishi tafsiloti xususida muallif: "Keyinchalik, ma'lum bo'lishicha, o'sha yigitlarni "o'g'ri" deb atagan kimsa Narziqul rais ekan. Tabiiyki, bu gapni poygakda o'tirgan Xoliq amaki ham eshitgan. Narziqul raisning bir uy odam eshitgan gapi qumga tushgan tomchidek singib, yo'q bo'lib ketgan-u, Xoliq amakining qo'shnisiga xufiya aytgan so'zi "bolalab" ketgan"³,- degan fikrni aytadi. Shu o'rinda beixtiyor O'tkir Hoshimovning hayot haqiqatiga aylangan quyidagi jumalari

¹100 mumtoz faylasuf.-Toshkent.,Yangi asr avlodi,2013.- B 75.

² Zulfiya Qurolboy qizi.Qadimiy qo'shiq.-Toshkent.,O'zbekiston,2017.- B 187.

³ O'sha manba. – B 189.

yodingizga tushadi: “Boy gerdaysa – salobat. Kambag’al ta’zim qilsa – xushomad. Boy gapirsa – donolik. Kambag’al sukut saqlasa – nodonlik. Boy “Mersades” olsa kamtarlik. Kambag’al velosiped olsa – manmanlik. Boy jinoyat qilsa – sho’xlik. Kambag’al sho’xlik qilsa – jinoyat. Boy o’lsa – motam. Kambag’al o’lsa – “bandalik”¹. Xoliq amakining aybi kambag’alligi, yoki bir jamiyatning soddadil, indamas kichik odamligidami? Muallif rais bilan bo’lgan ko’ngilsiz voqeadan so’ng: “Narziqul raisni bir umrga yomon ko’rib qoldim”²,- deganidek, shu kabi hodisalardan keyin kitobxonning ham ko’nglida ular kabi ma’naviyatsiz shaxslarga nisbatan nafrat uyg’otadi. Xoliq amaki kabi insonlarni hikoya qilgingiz, ularning haq-huquqlari uchun kurashgingiz keladi. Xoliq amakini yuziga tushgan tarsaki sizning g’ururingiz, oriyatingiz, kattalarga nisbatan hurmat saqlab kelgan vijdoningizga zarba beradi. Og’riqdan to’lg’ongan yurak, tanangizni boshqarib kelayotgan aqlga o’z ta’sirini o’tkaza boshlaydi. Bizningcha, adiba Zulfiya Qurolboy qizining ushbu hikoyada ijodiy fazilatlar egasi kichik odam obrazini aynan shunday, ya’ni boshqalar oldida ojiz qilib tasvirlashdan maqsad ham shu bo’lgan. Ko’ngilning qayeridadir pinhon yashayotgan ma’naviy tuyg’ularnijumbushga keltirish, ularni hayotga qaytarish ham! Arzimagan iltifotdan benihoya xursand bo’lgan Xoliq amaki ahvolini ko’rar ekansiz, siz ham shunday buyuk ishlarga qo’l urgungiz, ahamiyatsiz deb bilgan ishingiz tufayli kimlarnidir xursand qilgingiz keladi. Avtobusda sodir bo’lgan, unga o’zgalar tomonidan joy berilgandan keying holat: “O’rindiqa yastanibroq joylashib olarkan, cheksiz baxtiyor kimsadek atrofga ko’z tashladi. Nazarimda yigitning joy berganidan tashqari, hurmat bilan “bobo” degani uni xursand qilib yuborgandi. “Rahmat, bolam, rahmat”,- deganda sakson – to’qsonni urib qo’ygan chollardek salobat bilan gapirgandi-da. Xursand bo’lib ketganida qisiq, mitti ko’zlari yaltirab ketishini o’shanda ko’rganman. Keyinchalik,

¹ Hoshimov O’.Daftar hoshiyasidagi bitiklar.-Toshkent.Sharq,2015.- B 143.

² Zulfiya Qurolboy qizi.Qadimiy qo’shiq.-Toshkent.,O’zbekiston,2017.- B 187.

yoshim sal ulg'aygach, mehrga zor odamgina arzimagan iltifotdan ham o'zini yo'qotib qo'yishini anglab yetdim"¹

Ma'naviy-marifiy masalalar talqinida ayrim ijodkorlar kichik odam obrazidan namuna sifatida foydalangan bo'lsa, yana kimlardir ularning zabun holini ko'rsatgan holda insoniy tuyg'ularni himoyasiga otlantiradi. Ayrim ijodkorlar "Odobni beodobdan o'rgan" maqolidan unumli foydalanib, kichik odam obrazlarining axloqsiz vakillarini qalamga oladi. Yozuvchilarda ma'naviy olami quruqshagan, risoladagi odamlarday fikrlash va o'zgalarni tuyish saodatidan mahrum bo'lgan ma'naviyatsiz kimsalarni tasvirlash mahorati shakllanayotganligi ham quvonarli hol. Sh.Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi, A.Yo'ldoshevning "So'qir" hikoyasida aynan shu xildagi qahramonlar tasvir etilgan. Hozir biz sizlar bilan ushbu masalalarga oid jihati bo'lgan Sobir O'narning "Tegirmonchining bolasi" hikoyasi bilan tanishib o'tamiz. Hayot oqar daryo deganlaridek kuch-quvvatga to'lgan, katta bir tegirmonni bir o'zi harakatga keltiruvchi Mardiboy bobo ham bir kun kelib quvvatdan qoladi. Boyligining asosiy qismi unumdor yerlarini kichik o'g'liga me'ros qilib qoldirganidan keyin bunga javoban katta o'g'li, kap-katta boshiga yarashmagan janjal chiqaradi: "Bir gal o'g'li otasi tahoratga ko'tarib chiqqan mis oftabasini qo'lidan tortib olib, boshiga tushurganini ham ko'rdik. Ha, biz bolalik, murg'ak ko'zimiz bilan ko'rib dodlab yubordik. Cholning boshidan qon otilar edi. So'ngra u qonga bo'yalgan ko'yi, yonboshiga munkib tushdi"². Dastlab bizga muallif tomonidan bolaligida, tirik baliqni yutgan holda tanishtirilgan tegirmonchining bolasini bu holati ko'ngilni behuzur qilsa, yuqoridagi vahshiyliги esa ko'ngil qolishiga, bu kabi insonlarga nisbatan qalbimizda nafrat uyg'onishiga sababchi bo'ladi. Keyinchalik "Bu dunyo qaytar dunyo" deganlaridek hikoya so'ngida noshud kichik odam obrazi hisoblanmish tegirmonchining bolasi ham, o'z bolasi tomonidan o'ldirilganini bilaganimizdan so'ng "Xudoyim, bunday

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. - Toshkent., O'zbekiston, 2017. - B 186.

² O'. Sobir. Bibisora. - Toshkent., O'zbekiston, 2011. - B 264.

odamlardan o'zing asra" degan fikr xayolimizdan o'tadi. Shunday odam bo'lib qolishdan ham, astag'furulloq'!..

Hayotda ro'y bergan deyarli hamma hodisalarning faqat sirti idrok etiladi xolos. Mohiyat, ichki jihat, sabab oqibat bog'lanishlari, ko'ngil, tuyg'ular silsilasi hayot hodisalarining ichida pinhon bo'lib qolaveradi. Hayot uchun natija muhim. Adabiyot esa – jarayon. Shu ma'noda, adabiyotning adabiyotligi ham hayotga o'xshamasligida, unga qaraganda ko'lamliroq, chuqurroq ekanligidadir. Shuning uchun ham hayotdagiga o'xshamagan tasvirlar milliy hikoyachiligimizda keng yoyilib bormoqda. Bu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining "Tafakkur" hikoyasi istiqloq davri o'zbek hikoyachiligida alohida mavqe va o'ringa ega. Ushbu hikoyada insonning nafaqat ko'ngil dunyosi, balki tafakkur, ong tushunchalarini ilg'ab bo'lmas, aqlga sig'mas kuch-quvvati qalamga olingan. Hikoya qahramoni kichik odam obrazi hisoblanmish Tangriberdi shahmatga mehr qo'yar ekan, bu ishtiyoq orqasidan juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Ota-onasidan umid bo'lmagach, domlasini shaxmat olib kelib berishini bir necha oy kutishdan boshlangan bola qiyinchiligi, Egamberdi raisning yollangan odamlari tomonidan yetkazilgan jabr orqali to'shakka mixlanib qolishi bilan tugaydi. Ota-ona vafotidan so'ng qarovsiz qolgan Tangriberdi holatiga muallif tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "U ozib, cho'p bo'lib qolgandi. Xuddi mo'miyolangan jasaddek kundan kun kichrayib, yemirilib bormoqda edi. Qalbida hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketgan... Vujudidan muhabbat va samimiyat siqib chiqarilgan... Shuuri... ayovsiz jangdan keyin huvillab qolgan qo'rg'onni eslatardi. Sovuq shamol, yelvizak hukm surardi u yerda... Insonni yengib bo'lmaydi, deyishadi. Ammo... U jismonan yengilgan edi"¹. Muallif tomonidan "jismonan yangilgan",- deya ta'rif berilgan qahramonimizning xotirasi qaytgandan keying holati: "Nigohlari beixtiyor shaxmat taxtasiga qadaldi. Qarashlarida favqulodda bir ziyraklik va teran ma'no aks etardi. Muzlab qolgan tafakkurida "yilt" etib uchqun paydo bo'ldi. Uchqun asta-sekin

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq.-Toshkent., O'zbekiston, 2017.- B 186.

alanga olib, zulmatda qaqshab yotgan tasavvur ko'zgusini yoritib, kumushday yaraqlatib yubordi"¹. Ushbu lavhalar bilan tanishar ekanmiz, qahramonimizning huvullab qolgan shuuriga qaytgan harakat, kitobxonga jo'shqinlik, o'zgacha bir kuch beradi. Jismning harakatini taminlovchi qism o'z vazifasini o'tolmaydigan bo'lib qolgan bo'lsa-da, ammo ong hamon kurashmoqda edi, tafakkur harakatda. Bu esa hayotda o'z oldiga katta marralarni qo'ygan, ma'lum bir to'siqlardan umidsizlikka uchragan shaxslarga qayta umid beradi. Orzularini hayotga qaytaradi. "Ilojsiz narsani o'zi yo'q"ligiga yana bir bor isbot bo'ladi.

"Ruhshunoslarning aytishicha, hayotsevar odam yarim payola suvni ko'rib, "piyolaning yarmida suv bor", degani holda, tushkun kishi xuddi shu idishga qarab, "uning yarmi bosh", der ekan. Chunki birinchi holda inson piyoladagi suvni, ikkinchisida esa piyolaning bo'sh joyini ko'rarkan. Asqad Muxtor "Tundaliklar"ida derazadan boqib kimdir osmondagi yulduzni, kimdir yerdagi go'ngni ko'radi, degan ma'nodagi fikrni yozib qoldirgan edi. Oriy rost, chunki har kim o'z tabiatidan kelib chiqib olamga nazar soladi"². Ammo bunday tabiat bilan go'dak dunyoga kelmaydi. Uni atrof muhit u muloqot qilayotgan jamiyat tarbiyalaydi. Yo jaholat qotqog'i tomon yetaklaydi, yo komillik tomon chorlaydi. Shuning uchun ham odamiylikka oshno, ma'naviyati yuksak kichik odam obrazining istiqloq davri adabiyotida ahamiyati beqiyosdir. Keling, "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasining qahramonlaridan biri qachonlardir insoniylik egasi bo'lgan Kozimjon xayollari bilan tanishaylik: "Nega men qishloqda qolgan hozir, hozir, shu tobda ko'zlarini abadiy yumib yotgan jigargo'sham – uzoqdagi Dilnurani, uni o'ldirgan dardni his qilmay qo'ydim? Bularning barchasiga sabab ulardan yiroqdaligimmikan?"³ Kozimjon tilidan aytilgan ushbu "milt" etib o'tgan so'roq, aslida kichik odam obrazining ma'naviy – marifiy masalalar talqinida nechog'lik katta ahamiyatga egaligi borasidagi iqrar edi!

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -Toshkent., O'zbekiston, 2017. – B 11.

² H. Ulug'bek. Ruhni uyg'otguvchi so'z. -Toshkent., turon zamin ziyo, 2017. - B 160.

³ www.ziyouz.uz kutubxonasi. H. Ulug'bek. Uzoqdagi Dilnura. -Toshkent., Kamalak, 2009, mart-aprel. - B 32.

II BOB. KICHIK ODAM OBRAZI TALQINIDA YOZUVCHI MAHORATI MASALASI

2.1 “Kichik odamlar” obrazi talqinida yozuvchi individualligi

Badiiy asarning qiymatini belgilashda undagi har bir katta-kichik tasvirda yozuvchining dalillash mahorati ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda asar syujetining markaziga hayotda boʻlib oʻtgan voqealarning olinishining oʻziga kifoya qilmaydi. Yozuvchi asardagi voqealar oqimiga kiritayotgan har bir harakatni, har bir badiiy tasvir vositasini va har bir detalni oʻz oʻrniga qoʻyishi, uning aynan shu joyda kelishi zarurligi va shartligini chuqur asoslashi lozim. Boshqacharoq aytilganda, asarda yozuvchi tomonidan kiritilayotgan har bir unsur oʻzaro birikib, yaxlit bir manzarani, hayotning muyyan bir parchasini koʻz oldimizga joylashtirib berishi kerak. Bu manzara yana koʻzga koʻrinmas ichki kichik xalqalar bilan ham bir-biriga mustahkam bogʻlanib ketadi. Agar asarda ana shunday xususiyatga ega tasvir yaratishga erishilgan boʻlsa bu jihat yozuvchining mahoratidan, isteʼdod darajasidan dalolat beradi. Bu dunyoda bir-biriga oʻxshash xarakter egasi boʻlmaganidek, asar yozish undagi obrazlarni yaratishda bir xil usul va uslubni qoʻllovchi yozuvchilarni ham uchratish mushkul. Aniqroq qilib aytganda, yozuvchilarimiz istiqlol davri oʻzbek hikoyachiligida Kichik odam obrazini yaratishda oʻziga xos individual usullardan foydalanmoqdalar. Soʻz oʻrnida Abdulla Qahhorning yosh yozuvchilarga maslahat maʼnosida bergan interviyusidagi quyidagi soʻzlarni eslash oʻrinlidir: “Kotobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak. Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zoʻr berib, oʻzining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va “qoyil qilib yozishga” behuda zoʻr bersa, adabiy asar uchun zarur boʻlgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi”¹,-

¹.Yoshlar seminariyasida soʻzlangan nutqdan.

degan edi u. Sobir O'narning "Tarvuz" hikoyasida biz ana shunday sodda va samimiy tilni uchratishimiz mumkin. Ushbu hikoyada muallif Kichik odam obrazini xarakterli xususiyatlaridan biri, barchaga o'rnak vazifasini o'tovchi ma'naviy olamini ochib berishda ushbu xislatdan yiroq bo'lgan Katta odamlar obrazidan unumli foydalanadi. Axir, "Yomonlar ham kerak, agar ular bo'lmasa yaxshining yaxshiligi qanday bilinsin",- deyilgan, bobolardan qolgan gap, asrlar davomidagi kuzatishlar natijasida vujudga kelganda. Yuqorida hikoya tilini sodda deb atadik, lekin biz nazarda tutgan soddalik - bu har bir voqea - hodisaga muallif tomonidan izoh berilgan, degani emas. Aksincha, ishonchli dalillar orqali kitobxoniga hikoya g'oyasini oson hazm bo'lishida. Istiqloq davri o'zbek adabiyotining asosiy shartlaridan biri muallifning o'z kitobxoniga bo'lgan ishonchida ekanligini Qozoqboy Yo'ldoshev "Yoniq so'z" maqolalar to'plami orqali aytib o'tib ketgan. Xullas, Sobir O'narning "Tarvuz" hikoyasida jamiyatning katta va kichik vakillarini ma'naviyat masalalari bir-biriga zid qo'yilgan holda, kichik odam obrazining axloqiy fazilatlarini ochib berilganligini ilg'ash qiyin emas. Oradan shuncha vaqt, yigirma uch yil o'tishiga qaramay, uzoq masofani do'stining quvonchiga sherik bo'laman deb bosib o'tgan Omondavlat obraziga qalbimizda qanchalik iliq taassurot paydo bo'lgan bo'lsa, Xudoyqulning birodarlikni ta'minlovchi ikki oyda bir yig'ilib turuvchi o'sha munosabat: "Ichlaringda joni bori kim o'zi?",- deb kulmish qildi. Do'sti xafa bo'la boshlaganini ko'rib "xo'p- xo'p", boshqa bunday demayman, men seni masxara qilmadim-ku",- dedi va tag'in kuldi"¹. "Men seni masxara qilmadim-ku",- degan jumla – "seni emas qishloqdagi boshqa sinfdoshlarni nazarda tutyapman, nega xafa bo'lasan",- degan ma'noni berib, Xudoyqul ushbu so'zlarni hazil ma'nosida aytganini bildirsa-da, ammo ushbu so'zlardan so'ng "yana kulishi" uning uzri til uchida, shunchaki, aytilganidan, aslida ham u "yo pulni, yo do'stlarini

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.O'.Sobir.Tarvuz.-T.,Kamalak,1993.- B 7.

mensimagan”¹ligidan dalolat beradi. Parchadagi ushbu ma’nomlarni kitobxon anglashi qiyin emas. Muallif inson ma’naviyati dunyodagi har qanday moddiy boylikdan ustun turishini kichik odam obrazi bo’lmish Omondavlatni, katta odam obrazi hisoblanmish Xudoyqulga qarama-qarshi qo’yibgina qolmasdan, qahramonimizni katta odamlar orasiga tashlaydi ham. Ularga qishloqning ehtirosli hayotini, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan xalqning ma’naviy boyligi hisoblanmish baxshilar termasini, umuman, ahamiyati yo’q. “Jingalak soch” deya ta’rif berilgan mehmon tilidan aytilgan: “Iltimos qilamiz shu narsani ayt mang”, - deya iljayishi”², - kabi jummalarning o’zi ham fikrimizni dalillaydi. Muallifning jarayonga: “Go’yo kulgi uchun aytilgan bo’lsayam, har qalay bu yigitlar illo-billo baxshining doston- u termasi uchun qishloqning boyagi orzu-ehtirosiga boy hayotini eshitishga-da toblari yo’qligi sezilib turardi”³, - kabi izoh berib o’tishi tushunchalarimizni yanada mustahkamlaydi. “Keyingi mehmon”lar “avvalgi mehmon”imiz Omondavlatga e’tibor ham bermay, deyarli odam o’rnida bilmay “biri olib, biri qo’yib kim bilan qanday shartnoma tuzgani, necha million tushurgani-yu, ularni qandoq o’zlashtirib, nimaga sarflashlari, tushunarsiz uslublari xususida so’zla”⁴shishlarini ko’rib, hayotning birlamchi mazmunini, inson baxtini faqat pul topa bilishda deb bilganlarga nisbatan yuragingizda achinish paydo bo’ladi. Omondavlat xayoliga hikoya so’ngida kelgan: “Bular bizga teng emas, butkul boshqa odamlar ekan, bachchag’arlar, degan koyishga o’xshash bir shiddatli o’y muhrlandi”⁵, jumlasini, qahramonimizni ularga o’xshamaganidan attang qilishi emas, balki ular davrasiga noo’rin kelib qolganligidan paydo bo’lganligini anglatadi. Omondavlat his qilgan haqiqatni anglab yetgan kitobxon, bu dunyoda odamiylik, insoniylik kabi

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi. O’.Sobir.Tarvuz. -T., Kamalak, 1993. - B 7.

² O’sha manba.

³ O’sha manba.

⁴ O’sha manba.

⁵ O’sha manba.

tushunchalar har qanday moddiy boylikdan ustun turishini, katta odamlar obrazi dunyoqarashiga zid tasvirlangan kichik odam obrazining ma'naviyati orqali teranroq idrok etadi. Bu esa Sobir O'narning istiqlol davri o'zbek adabiyoti hikoyachiligida kichik odam obrazini xarakterli xususiyatlarini ochib berishdagi o'ziga xos individual usullardan mahorat bilan foydalanganligidan dalolat beradi.

“Adabiyotshunoslik va stilistikada allaqachon badiiy detaldan keng foydalanish holati muallifning individual uslubiga muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qilishi e'tirof etilgan”¹ligi istiqlol davri o'zbek adabiyoti hikoyachilik janrida kichik odam obrazini ochib berishdagi Sobir O'narning navbatdagi o'ziga xos usulini talqin etishimizga zamin yaratadi. Istiqlol davri namoyondalari Sobir O'nar hamda Ulug'bek Hamdam, Erkin A'zam, Isajon Sulton va Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalaridagi obrazlar talqiniga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, boshqa yozuvchilardan farqli o'laroq Sobir O'nar kichik odam obrazini ochib berishda “Tarvuz” hikoyasida tarvuzdan o'ziga xos bir detal sifatida foydalanadi. Qaysidir tomoni bilan ushbu usul Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini yodga solidi. Bu esa XX asr nafasi, XXI asrda ham o'z uchqunlarini ko'rsatayotganidan nishona. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidagi anor detali hikoyaning bosh g'oyasi bo'lmish kambag'alchilik har qanday baxtli oila munosabatiga salbiy tus berishini ko'rsatishda asosiy unsir vazifasini o'tagan. Ayni shular xususida Umurzoq O'ljaboyev “Hikoyachilikda davr nafasi” asari orqali quyidagi fikrlarni aytadi: “Bu asarning asosida kambag'alchilik, qo'li kaltalik inson uchun qanchalik og'ir fojia ekanligini ko'rsatib berishdek bir g'oya turadi”². Sobir O'narning “Tarvuz” hikoyasidagi tarvuz detali ham hikoyaning bosh g'oyasini talqin etishda xuddi shunday dastlabki unsurlardan biri hisoblanadi. Qadriga yarasha qadr topmagan, axlatdan joy olgan tarvuz shunchaki poliz ekini emas, balki yer yuzida odamiylikni

¹ O'zbek tili va adabiyoti.S.Rahimov.Adabiyotshunoslikda badiiy detal. –Toshkent.-2010. - B 66.

² O'ljaboyev U.Hikoyachilikda davr nafasi.-T.,Turon zamin ziyo,2016.- B 69.

bayroq qilib tutuvchi inson timsoli edi. Uni xudoyqullar tilidan qadrsizlanishi esa kishi qalbida norozilik kayfiyatini uyg'otadi. Bu kabi norozilik kitobxon ma'naviyatini boyishiga xizmat qiladi. Detalni muallif hikoya nomi darajasiga ko'tarishi uni bu usuldan mahorat bilan foydalanganligidan dalolat beradi.

Serqirra ijodkorlardan biri Ulug'bek Hamdam :“Uslubingizni o'zgartirish niyatingiz bormi?,- deya berilgan savolga, - Men o'zimni rang–barang uslubda qalam tebratuvchi ijodkorlar safiga qo'shib yursam-u, siz yana uslub o'zgartirish haqida so'rayapsiz”¹, - deya javob beradi. Shu suhbatning o'zida : “Muvozanat” realistik, “Isyon va itoat” shartli-ramziy, “Sabo va Samandar” liro-romantik ruhda, shunga yarasha uslublarda yozilgan. “Yolg'izlik” nomli qissam esa tamomila biz ko'nikkan syujetlarsiz qog'ozga tushgan. Uning modern tabiati boshqa asarlarimdagi realistik uslubdan tamomila farq qiladi”², - deya aytib o'tgan. Ana shunday turli xil usullarda samarali qalam tebratgan yozuvchimiz istiqloq davri kichik odam obrazi talqinida o'ziga xos yo'nalishlardan foydalanadi. Yozuvchining obrazlar yaratishdagi individualligini “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi orqali ko'rib o'tsak. Kuzatishlarimiz samarasi o'laroq, kichik odam obrazini insoniyatning ma'naviyati masalasida nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini bilib oldik. “Uzoqdagi Dilnura” ana shunday masalalar talqin etilgan hikoya hisoblanadi. Yozuvchi mahoratini qaranki, Kozimjon obrazi orqali kichik odam obrazining axloqiy qarashlarini ochibgina qolmasdan, balki ularni bugungi, hamma o'zini davr bilan hamnafas bo'lishga intilayotgan zamonda, nechog'lik darkor ekanliklarini ham yoritib bergan. Bunda muallif qahramonlarimiz ta'sirida Kozimjonda vujudga kelgan iqrordan foydalanadi. Hayotning asl mohiyati, umrning o'tkinchi ekanligi-yu, bu hayot haqiqati oldida barchamiz ojizligimizga qaratilgan dastlanki iqror: “Nega, nima uchun?- derdi ichida kimdir. Axir, bor – yo'g'i ertalab butunlay boshqa odam

¹ H.Ulug'bek.Ruhni uyg'otguvchi so'z.-T.,Turon zamin ziyo,2017.- B 332.

² O'sha manba.

edim-ku!.. Go'yo hamma narsaga qodir edim. Endi-chi, endi?.. Endi nega bunday abgorman? Qaysi dunyoga tushib qoldim men?.."1 Tog'asi marakasida jiyalik burchini ado etayotgan Kozimjon xayolidan o'tgan navbatdagi o'ylar asar g'oyasini singdirishda keyingi pog'ana vazifasini o'taydi. O'sha o'ylarga muallif tomonidan berilgan ta'rif: "Kozimjon dunyo, umr, hayot deganlarining asl holini – ibtido va intihosini qalb ko'zi bilan ko'rgandek his qildi o'zini. His qildi-yu, ajab hollarga tushdi: o'zining o'sha son-sanoqsiz odamlardan-yo'lovchilardan zarracha farqi yo'qligini angladi"2. Boshqa hikoyalarda qaysidir usullar bilan kitobxonlarga singdirilgan tushunchalar, Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasida Kozimjon obrazi tilidan ifodalanmoqda. Bu shunchaki, o'ylar emas. Bu kichik odam obrazining alamli hayoti natijasida vujudga kelgan xulosa. Bizningcha, yozuvchi aynan shunday usuldan bormasa, hikoyaning ta'sir kuchi bu darajada bo'lmas edi. Chunki boshqa hikoyalarda ma'naviy olami quruqshamagan kichik odam obrazlarining bugungi kundagi ahamiyatini his etish kitobxonning o'ziga tashlangan bo'lsa, ushbu hikoyada qahramonning o'zi ham bu haqiqatni bir muddat bo'lsa-da his qiladi. Shaharga qaytib faqat buguni uchun yashay boshlagan Kozimjon o'ylariga e'tibor beraylik: "Dilnuraning, onasining faryodlari qotib ketgan dilimni yumshatgan edi-ku! Qani o'sha yig'lagan qalb?"3 Qahramon tilidan ritorik so'roq gap singari yangragan savolga, muallif, katta odam obrazi Kozimjon tomonidan: "Hammasiga sabab ularning mendan uzoqda-ko'rar ko'zlarimdan yiroqda yashaganliklarimi?"4,- deya javob beradi. Asardagi ushbu jumla, muallifning, qahramon orqali barcha kitobxonlarga kichik odam obrazining bugungi hayotimizdagi o'rniga qarata aytgan so'zlaridir.

¹www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug'bek.Uzoqdagi Dilnura.-T.,Kamalak,2009,mart-aprel.- B 32.

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

⁴ O'sha manba.

Hayotda sodir bo'layotgan voqealarni, undagi tinim bilmas odamlarni hech e'tibor bilan kuzatganmisiz? Inson atalmish zod taniga jon tashrif buyuribdiki, u tinimsiz harakatda faoliyatda bo'ladi. Shu jarayonlarni o'zgacha nigoh bilan kuzatgan, modern adabiyot vakili Isajon Sulton "TODD" hikoyasini 1999-yil kitobxonlar e'tiboriga havola qildi. Hayot tushunchasi, undagi voqea-hodisalarni, hech kim bilmagan, his qilmagan tomonlari qalamga olingan asar O'tkir Hoshimov ta'biri bilan aytganda "Ikki odil hakam: kitobxon va vaqt sinovidan"¹ o'ta oladi. Isajon Sultonning "TODD" hikoyasi ana shunday asarlar sirasiga kiradi desak, bizningcha, mubolag'a bo'lmaydi. Kichik odam obrazining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning tinim bilmasliklarida ekanligini yuqorida ko'rib o'tgan edik. Balki, shuning uchundir muallif hayot falsafasini yoritishda Kichik odam obrazi vakillaridan biri Mamasiddiq pishshiq obrazidan foydalanganligi. Unga o'g'li tomonidan quyidagi ta'rif beriladi: "O'ylab qaragam, otam lagerlardagina emas, butun umri davomida yugurib yashabdi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demabdi. Bolam, debdi. Ro'zg'orim, debdi..."² Bu kabi xatti-harakatlar barcha Odam Ato farzandlariga xos desak, bizningcha, xato bo'lmaydi. Obraz yaratishda muallif falsafiy mushohadakorlikdan unumli foydalanganligini qahramonimizga TODD tilidan aytilgan quyidagi jumlar orqali izohlasak: "Senlar meni yomon ko'rasanlar, bilaman. Ammo, hayot mendan ko'ra beshafqatroq, senlarni bu yugurishingdan ko'ra million marta murakkabroq"³. Yugurishdan to'xtaganni nobud qilishga-da qodir bo'lgan TODD, hayotning undan-da beshafqat ekanligini ta'kidlagandan so'ng, uni murakkablik tomonlarini izohlab ham beradi: "U senga marra qaydaligini aytmaydi, qay tarafga qarab chopishni, qancha chaqirim yugurishing kerakligini ko'rsatmaydi. Barini o'zing topasan, o'zing hal qilasan..."⁴ Obraz yaratishda falsafiy

¹ Hoshimov O'.Daftar hoshiyasidagi bitiklar.-T.,Sharq,2015.- B 56.

² S.Isajon.Boqiy darbadar.-T.,O'zbekiston,2001.- B 157.

³ O'sha manba.

⁴ O'sha manba.

mushohadakorlikni asos qilib olgan yozuvchi bir-birini to'ldirib, asarning bosh g'oyasiga xizmat qiluvchi xalqalarni vujudga keltiradi. TODD obrazi orqali aytilgan fikrlarni hayotdagi isboti sifatida muallif hikoyadagi kichik odam obrazlari hisoblanmish Mamasiddiq pishshiq, hamda uning o'g'illari hayotini, pishshiqning katta o'g'li tomonidan hikoya qilib beradi. O'g'ilning o'z hayotiga bergan bahosi: "Keyin o'z hayotimga razm solaman. Razm solaman-u yana o'sha manzarani ko'raman: ukalarimning bari ro'zg'orim deb yelib, yuguryapti. O'zim ham bolam-chaqam deb tinmayman"¹. Siz-u, bizga shuningdek, istiqlol davri o'zbek adabiyotidagi Kichik odam obrazlarigada xos bo'lgan hayot tarzini o'zgacha rang tasvirlarda bayon etayotgan yozuvchi, ko'plab insonlarni yugurishga majbur etgan Toddning ma'nosini ochib berish orqali hikoya g'oyasidagi so'nggi xalqani ham ulaydi. Asar g'oyasini teranroq his etishga undovchi, o'quvchini o'tkir fikrlashga chorlovchi mana o'sha ma'no: "Nemis zobitining ismi bo'lmish "Todd" so'zining o'zbekchadagi ma'nosi "O'lim" bo'lib chiqqanini nima deb izohlasa bo'ladi? Tasodif deyinmi? Yo bir haqiqat?"¹ Bizningcha, yozuvchi hikoya g'oyasini ochib berishdagi asosiy xalqalardan biri vazifasini kichik odam obraziga yuklaydi. Obrazlarga falsafiy mushohadakorlik bilan yondashish hikoyadagi yozuvchi individualligini namoyish qiladi.

¹ S.Isajon. Boqiy darbadar. –T.,O'zbekiston,2001. - B 159.

2.2 Obrazlar talqinida badiiy detalning o'rnini

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti hikoyachilik janrida kichik odamlar obrazi haqida so'z yuritish ekanmiz, ularda ko'p uchraydigan, yozuvchi qalamining o'ziga xosligini ko'rsatib turadigan badiiy detallar haqida gapirmasdan o'tib ketish mumkin emas. Shu o'rinda Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini eslab o'tish joiz: "...adabiy asarning maydonga kelishi uchun avtorning niyatigina kifoya qilmaydi. Avtorning niyati ma'lum bir ideyani tashviq qilmoq ekan, uni tashviq qila bilishi kerak. Tashviq qila bilishning asosiy shartlaridan biri esa o'quvchini ishonтира bilishdir. Avtor yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi"¹. Ushbu jumlar orqali biz badiiy detalning tasvirda qanchalik muhim rol o'ynashi haqida bildirilgan fikrga e'tiborni tortishga harakat qildik. Endi savol tug'iladi: xo'sh, badiiy detalning o'zi nima? "Badiiy detal mayda qismchalardan biri,- deb yozadi professor U.Normatov,- Biroq asardagi har qanday qismchalar detal bo'lavermaydi. Detalni tafsilotdan farq qilmoq kerak. Tafsilotdan farqli o'laroq, detal qisqa va ixcham bo'ladi. U tasvir ob'ektini sintezlashtirib ko'rsatish, u haqida kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega"². Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta'rif beradi: "Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o'quvchini bir lahza to'xtatib, uning diqqat e'tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir ob'ektini bo'rttirib, qabartirib ko'rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi"³.

Adabiyotshunoslikda yozuvchi qo'llagan detallarning u yoki bu vazifalari haqida ko'p gapiriladi-yu, ularning eng muhim xususiyatlaridan biri asarning

¹ O'ljaboyev U. Hikoyachilikda davr nafasi.-T., Turon zamin ziyo, 2016.- B 78.

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

emotsional vazifasini ochib berishdagi tomoni haqida kamroq fikr yuritilmoqda. Sobir O'narning "Tarvuz" hikoyasidagi detallar g'oyat kuchli hissiy qudratga ega, ular shu zahotining o'zida kitobxonga yetib boradi va unga kuchli ta'sir etadi. Hikoyadagi odamgarchilikdan chiqqan inson, ya'ni Omondavlatning odam qadrini anglamasligi kabi illati ochib berilishida katta xizmat qilgan, kichik detallarga e'tibor bergan holda, "Avvalgi mehmon bilan keyingi mehmon"¹, - deya ta'rif berilgan shaxslarga bu kabi insonlarning munosabati qanday bo'lganligini matn orqali kuzatsak: "Xudoyqul gapi teskari bo'lgani bir sari durustroq siylamadiyam. Dasturxonga kelgan birinchi ovqat moshxo'rda bo'ldi"². E'tibor bergan bo'lsangiz biz o'zbeklarda asosiy mehmonni osh bilan siylashadi, moshxo'rda bilan emas. Bu yerda moshxo'rda Omondavlatni Xudoyqulning qadrlı mehmonlaridan emasligini isbotlovchi bir detal vazifasini o'tayapti. Endi yangi mehmonlarni kirib kelishi va dasturxoniga e'tibor beraylik: " ... eshik qo'ng'irog'ı jiringladi. Bashang kiyingan ikki yigit kirib keldi... Stolga bir pasda g'alati taomlar kela boshladi. Kolbasa, qazi, pishloq, tovuq go'shtidan tortib boshmoldoqning boshiday kelguvchi og'zi lang ochilgan pistalar ham keldi"³. Ushbu taomlar bu ikki shaxsning Xudoyqul uchun nechog'li ahamiyatga ega insonlarlar ekanligini anglatib turuvchi detal vazifasini o'tagan. Ammo bunchalik takallufning boisi, mehmonlarning Xudoyqul qalbiga qadrlı bo'lganliklaridan emas (ertan-mertan bojxonada ishlaydigan Qobilning oldiga o'tish haqidagi o'zining mas'uliyatini anglagach, ikki sherikka, aniqrog'ı mehmonlarning guliga takallufni davom ettira berdi), balki ularni kelajakda keltirajak foydasida. Ushbu o'rinda moshxo'rda – e'tiborsizlik, turli noz-ne'matlar – takalluf ma'nosini ifodalabgina qolmasdan Omondavlat obrazi xarakterini ochib berishda yordam bergan. Detal tanlashda muallifning hayotni chuqur tushunishi, odamlar psixologiyasini o'rganganligi katta ahamiyat kasb etadi. "Detal ko'pincha

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.O'.Sobir.Tarvuz.,Kamalak,1993.- B 7

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

sub'ekyiv, ya'ni muallif nuqtai nazaridan chiqib tanlanadi. Demak, detalga hikoyaning eng asosiy qismi bo'lishi bilan birga shu qismda muallif pozitsiyasining eng yorqin namoyon bo'lish o'rnini ham deb qaramoq kerak"¹. "Tarvuz" hikoyasida Sobir O'nar o'z uslubini shu qadar namoyon etganki, hatto, hikoya asar tarkibidagi detal nomi bilan ataladi. Xo'sh bir kechadagi ikki inson munosabati yoritilgan ushbu hikoyaning nomi "Tarvuz" deya atalishiga, bir tarvuz hikoya nomi darajasiga chiqishiga nima sabab bo'ldi ekan. E'tibor bilan qarang: "Ittifoqo yupqa, nozik likobchalarda tarvuz keldi. Omondavlatning biroz kayfi oshgani boismi, tarvuzga ko'zi tushgani zamon ichi yorishib ketdi. Hay-hay yosh boladek sevindi"². Muallif tomonidan keltirilgan "Hay-hay" degan jumlaning o'zi bu holatga nechog'lik jonlilik baxsh etayotganini qarang-a. O'zbeklarning mehmondo'stligini bilardik, ammo o'zi keltirgan kichkina bir narsa ham dasturxon yuzini ko'rsa undan bunchalik rohatlanishini, bolalarcha ya'ni chin dildan sevinishini bilmas ekanmiz. O'sha kichkina bir narsa dasturxondan qanday joy olgan bo'lsa, uning egasi ham o'zini mezbon hayotida shunchalik o'ringa egadek his qilishini anglamabmiz. Har xolda, "Picha mubolag'a bilan aytganda, dasturxonning egasiday sezdi o'zini"³, - degan jumlar zamiriga shu xulosalar berkitilgan bo'lsa ajabmas. Lekin biz bu manzarani faqat sirdangina kuzatyapmiz, chetdan baho beryapmiz, chindan sevinyapmiz, xuddi, qahramonimiz singari. Hamma tarvuzning ham ichi qizil bo'lganidek, barcha odamlarda ham ikki oyoq, ikki qo'l, ikki ko'z-u ikki quloq bo'lar ekan-u, ular faoliyatini ta'minlab turuvchi bir parcha go'sht ichida senga nisbatan nelar borligini anglash uchun uni huzurida bo'lishing, uni ta'tib, ko'rishingni o'zi kifoya ekan. "Omondavlatimiz tag'in ularning ishbilarmonligi-yu", - katta odamlarning, - "katta gaplariga mahliyo bo'lganicha qoldi. Qozonkabob keltirildi. Ichishdi. Tarvuzga uzalib bir tilik oldi. Yeb bo'lib po'chog'ini likobchaga qo'yar chog' tag'in dong qotdi, bu

¹ Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid) Uch jildlik. 1-jild. -T., 1991. - B 78.

² www.ziyouz.uz kutubxonasi. O'. Sobir. Tarvuz. -T., Kamalak, 1993. - B 7.

³ O'sha manba.

boshqa tarvuz! Qorasidan olib kelgandi, bunisi yashil chipor”¹. Shuncha yillik qadrdonini qadrlamagan inson, noz-u ne’matlarga to’la kichik bir dasturxonidan sodda, tanti bir insonning o’zi kabi oddiy tarvuziga joy beramidi? Bu kabi haqiqatni anglagan Omondavlat holatiga yozuvchi, qahramon tilidan quyidagicha ta’rif beradi. “Bular bizga teng emas, butkul boshqa odamlar ekan bachchag’arlar, degan koyishga o’xshash bir shiddatli o’y muhrlandi va kayfiyati tushib ketdi”². Muallif mahoratini qarang, “koyishga o’xshash bir shiddatli o’y xayolidan o’tdi” emas, balki “muhrlandi”. Muhr! Muhr eng asosiy hujjatlarga, eng asosiy o’rinlarda ishlatiladigan narsa va uning qoldirgan izi abadul abad o’chmaydi. Xuddi, Omondavlat ko’nglidagi yara, u anglagan haqiqat singari. Muallif tili bilan aytganda: “Omondavlat o’rtog’l uchun bu qadar ahamiyatsiz bo’lganidan o’kindi, albatta”³. Do’stiga mehr bilan keltirilgan “tarvuz” mezbonning “dasturxon”idan emas, balki axlatxonadan joy olsa, bu mehmonning kimligiga ishorami, yoki mezbonning ma’naviyatdan yiroqligi, olamni faqat moddiylikdan iborat deb bilishidan dalolatmi? Keling, bu manzara bilan matn orqali to’liqroq tanishib chiqsak: “Omondavlat e’tibor bermadi-yu, xotini bir turtgach, cho’chiganday ishora qilgan tomonga qaradi: temir yashiklar yoniga xuddi kecha o’zi ko’tarib kelgan tarvuzlarga o’xshash ikki tarvuz turibdi. Nahotki, dedi o’zicha”⁴. Bu manzara bilan tanishgan kitobxon ko’nglida Omondavlatning qadriga achinishdan ko’ra ko’proq, Xudoyqulga nisabatan nafrat uyg’onadi. Yuqoridagi savolga beixtiyor javob topgan bo’lsangiz ajab emas. Ularga qarata: “Katta bir kursilarning shinam bir joylarida o’tirgan, ey katta insonlar, bu dunyo faqat moddiylikdan iborat emas, unda mehr-muhabbat, e’tibor, insoniylik deya atalmish, moddiylik tarozida o’lchab bo’lmas tuyg’ular ham bor”,- degingiz keladi. E’tibor, mehr bilan olib kelingan, dasturxonning bir chetiga

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.O’Sobir.Tarvuz.-T.,Kamalak,1993.- B 7.

² O’sha manba.

³ O’sha manba.

⁴ O’sha manba.

ham loyiq ko'rilmagan, axlatxonada yotgan ikki dumaloq, usti qora narsa shunchaki bir tarvuz emas edi. U katta kresloda bo'lmasa-da, bir vaqtning o'zida bir necha inson sig'ishi mumkin bo'lgan oddiygina ko'rpachada o'tiruvchi, insoniylikni hayotining asosiy mezonlaridan biriga aylantirgan, ma'naviyatli, xuddi, tarvuz singari ko'rinishi oddiy kichik odam Xudoyqul obraziga ishora edi. Ushbu fikrlarimizni qahramonimiz xayolidan o'tgan jumlar ham dalillaydi. "Ey, inson! Kechagina men qatori eding-ku. Qishloqdan, tezak orasidan chiqding-ku. Nima qiliq axir bu? Senga million so'mlik sovg'a olib kelishga qurbim yetmaydi. Ko'ngil bu, do'st, ko'ngil! Haqorat ham shunchalik bo'lar"¹.

Ayrim yozuvchilar ba'zan butun boshli xarakter mohiyatini asosan portret tasviri orqali ochadi. Bunda u shunday yo'l tutadi: dastlab qahramon qiyofasidagi xarakterli belgilarni birma bir aytib o'tadi, so'ngra bu tafsilotlarni bitta xarakterli detal orqali umumlashtiradi, yozuvchi keltirgan tavsilotlar xarakter qiyofasining u yoki bu tomoni haqida tasavvur qilish imkonini bersa, umumlashtiruvchi detal xarakter qiyofasini yaxlit va lo'nda qilib gavalantiradi, qo'yadi, ayni vaqtda shu detal xarakter mohiyatini ham belgilaydi, xarakterni biz xuddi shu detal orqali tasavvur qilamiz. Shu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining "Xoliq amaki" hikoyasining qahramoni Xoliq amaki portretiga e'tibor beraylik. "Egnida yoqasi-yu yenglari idrab-suzulib qolgan chorxon ko'ylak, rangi uniqib ketgan nosvoyrang soldatcha shim, oyog'ida poshnasi yeyilgan, tumshug'l yirtilganda tikilaverib "qo'tir" bo'lib qolgan etik... Sochlari qorday oqarib ketgan boshida esa hamisha yap-yangi do'ppi bo'lardi"². Hikoyaning boshidayoq Xoliq amaki biz kitobxonlarga xuddi shunday tanishtiriladi. Keyingi o'rinlarda ham qahramonimizning jamiyatning oddiy vakili ekanligi haqida muallif tilidan hech qanday fikr aytilmaydi, ammo qahramonimiz portretidagi ayni o'rnida ishlatilgan detallar orqali uni xalqning vakili ekanligini

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.O'.Sobir.Tarvuz.-T.,Kamalak,1993.- B 7.

² Zulfiya Qurolboy qizi.Qadimiy qo'shiq.-T.,O'zbekiston,2012.- B 188.

ilg'ab olishimiz qiyin emas. Idragan ko'ylak, oqargan shimni bir chekkaga qo'yib turaylik, hatto, oyoq kiyim ma'lum muddat kiyilgandan so'ng poshnasi yeyiladi. Bular hayotda ko'plab uchrab turadigan hodisa. Poyabzalning tumshug'i urilishi ham, ammo uning qayta-qayta yirtilishiga nima deysiz. Poyabzal ne-ne kosiblarni ko'rgunga qadar, qayerlarni, qancha muddat kezdi ekan. Axir, silliq oyoq kiyim, "qo'tir" holiga kelishi uchun ancha muddat, yolg'iz o'zi mashaqqatli mehnat qilishi kerak. Unga "hamroh" olgani esa Xoliq amakida ortiqcha pul yo'q. Ushbu fikrimizni qahramonimiz Narziqu'l raisga qarata aytgan "Bolalarning oyog'iga yo'q" deya zorlanishi ham dalillaydi. Portret tasviridagi yana bir muhim detal kitobxonga beihtiyor g'urur tuyg'usini baxsh etadi. Uniqqan kiyimlar kiysa ham Xoliq amakining, "Sochlari qorday oqarib ketgan boshida hamisha yap-yangi do'ppi bo'lardi"¹. Ana milliylikka, milliy qadryatlarga hurmat. Birgina do'ppini shunchalik ardoqlagan inson o'zgalarga nisbatan nomehribonlik qilib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan fazilatlarga putur yetkazmasligi tabiiy hol. Buni o'zgalar farog'atini deb, o'z manfaatlaridan voz kechgan o'rinlarida ko'rib o'tdik. Muallif mahoratini qaranki, birgina detal "yangi do'ppi" orqali voqealarning ishonarliligini ta'minlagan ekan. Bu esa so'nggi davr o'zbek nasrida sifat jihatdan yangilanish jarayoni kechmoqdaligini "ularda eng yaxshi an'analar izchillik bilan davom ettirilgani holda inson ruhiyatiga xos nozik tebranishlar milliy va umuminsoniy qadryatlar bilan bog'liq holda yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda"²ligini ko'rsatib turadi.

"Muallifning detalga bo'lgan e'tibori uning o'quvchini qabul qilish jarayonini faollashtirishga, hammualliflik qilishga va qo'shimcha mustaqil tasavvurini undovchi potensial kuchidan kelib chiqadi. Badiiy asar ayniqsa hikoyani bezab turguvchi va uning badiiy qiymatini oshirguvchi unsir detal"³ ekan, demak, biz hech bir hikoyani usiz tasavvur qilolmaymiz. Kichik bir janrda katta mahorat ko'rsatgan

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. -T., O'zbekiston, 2012. - B 188.

² O'zbek tili va adabiyoti. S. Rahimov. Adabiyotshunoslikda badiiy detal. -T., Fan, 2010. - B 64.

³ O'sha manba.

Abdulla Qahhor ijodida tabiat tasviridagi detaldan foydalanib, qahramon xarakteri ochib berilgan o'rinlarni uchratishimiz mumkin. Xuddi shunday usulni istiqlol davri o'zbek adabiyotidagi hikoya janrida ham munosib qalam tebratayotgan Isajon Sultonning "TODD", hamda Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura", Zulfiya Qurolboy qizining "Xoliq amaki" hikoyalarida ham uchratishimiz mumkin. Ular detaldan kichik odam obrazining xarakterli xususiyatlarini ochib berishda unumli foydalanadi. Istiqlol davri Kichik odam obrazi ma'naviyati quruqshagan shaxslardan farqli o'laroq, jamiyatning oddiy vakili ekanligi bilan biz tanishib chiqqan edik. Ushbu fikrimizni Isajon Sultonning "TODD" hikoyasida keltirilgan peyzaj tasviridagi detallar orqali umumlashtirsak: "Mening ilk anglagan narsam-bu xonadondagi g'aribonlik bo'ldi. Ayvonga eski bir sholcha to'shalgan, ustida po'stak... Eshik – derazalarning bo'yoqlari ko'chgan. Daraxtlarning to'kilgan barglari bir chetga uyulgan, qo'radagi qo'ylar oldida-da bir uyum xazon: qo'ylar uni talashib tortishib yeyishayotir"¹. Muallif tilidan keltirilgan hikoya qahramoni, kichik odam obrazi Mamasidiq pishshiqning xonadonidagi tabiat tasviri uning ijtimoiy ahvolidan dalolat beradi. Bu yerda eski sholcha, bo'yoqlari o'chgan deraza g'ariblik alomatidir. Kundalik hayotimizda ko'plab g'arib xonadonlarda xuddi shu kabi holatlarni uchratib turamiz. Hikoyaning boshqa bir o'rnida muallif qahramonimizning moddiy ahvoriga alohida bir murojat bilan to'xtalib o'tirmaydi, ammo shu o'z o'rnida ishlatilgan eski sholcha hamda bo'yoqlari o'chgan deraza detallari orqali biz qahramonimizni jamiyatning kichik bir vakillaridan biri ekanligini his qilib turamiz. Qahramonlarimizning aksariyatiga aloqador bo'lgan ushbu g'ariblik sababi ularni o'z hayotiga befarq, yoki kamharakat ekanliklaridan emas. Chunki kichik odam obarzi vakillarining ko'plab a'zolari mehnatsevar, tirishqoq, tinim bilmas

¹ S.Isajon.Boqiy darbadar.-T.,2008.- B 154.

shaxslardir. Uzoqqa bormay “TODD” hikoyasidagi navbatdagi peyzaj tasviriga e’tiborimizni qaratsak: “...biroq mevali daraxtlarning bari orasta, tartib berilgan, kuzgi husaynilar oltinday tovlanib turibdi”¹. Kuzgi husaynilarning o’z faslida, vaqtida sap-sariq (oltinday tovlanib) rangga kirib, maromida pishishi, mevali daraxtlarga tartib berilishi uchun ancha e’tibor va birmuncha mashaqqatli mehnat zarur. Qahramonlarimizning tinim bilmasligiga muallif tomonidan keltirilgan quyidagi : “Men uning dam olib o’tirganini yoki choyxonada oshxo’rlik qilganini hech ko’rmaganman. Xayolimda-da u indamas, tinim bilmas bir kishi sifatida qolgan”², - degan jumalari orqali juda ko’p bor amin bo’lganmiz. Yuqoridagi detallar esa muallif tiliga kitobxonni ishontirishdagi asosiy vosita vazifasini bajaradi. Abdulla Qahhor tabiri bilan aytganda: “ ... hikoya, povest, roman va umuman hamma janrda bo’lgan, adabiy avtor tomonidan kiritilgan, sohta detal, hatto bir so’z ham butun asarning ta’sirini yo’qotadi”³. Mehnatsevarlik, kecha-yu kunduz tinim bilmaslik kabi faziatlar istiqloq davri o’zbek hikoyachiligi namunasi bo’lmish, Isajon Sultonning “TODD” asari qahramonigagina tegishli emas. Bu xususiyatlarni biz Ulugbek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura”, Sobir O’narning “Tarvuz”, “Tegirmonchining bolasi”, Erkin A’zamning “Aralashqo’rg’on”, “Bog’bolalik Ko’kaldosh”, Zulfiya Qurolboy qizining “Xoliq amaki”, “Tafakkur” hikoyalarining yetakchi qahramonlari bo’lmish Kichik odam obrazlarida uchratishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotda yaratilgan har bir obraz, xarakter va tiplarning nechog’lik ishonarli chiqishi yozuvchi mahorati, uning siz-u biz ko’rib turgan hayotni botinda yashirin jihatlarini ko’ra bilish kabi qobiliyatlariga bog’liq. Ko’plab asarlarni o’qish chog’ida guvohi bo’lganimizdek hech qachon ijobiy obraz xonadoni supuruqsiz, haroba holda (Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi Homidning hamtavoqlari uyi tasviri) tasvirlanmaydi. Yoki, baxtdan sarhusht odam xazonlar aro

¹ S.Isajon.Boqiy darbadar.-T.,2008.- B 154.

² O’sha manba.

³ O’ljaboyev U.Hikoyachilikda davr nafasi.-T.,turon zamin ziyo,2016.- B 79.

kezmaydi. Ko'proq baxtli holatlar yosharish va yangilanish ayyomo bo'lmish bahorda, qayg'uli holatlar esa kuzda sodir bo'ladi. Bu fikrimizni Isajon Sultonning "TODD" hikoyasi qahramoni Mamasiddiq pishshiqning kasallikdan vafot etgan (kuzgi husaynilar oltinday tovlanib turibdi) fasli ham dalillaydi. Ulug'bek Hamdam "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasida detallardan, nafaqat, kichik odam obrazining xarakterli xususiyatlarini ochib berishda, balki hikoya ruhiyatini yoritishda ham unumli foydalangan. Oyoqdagi arziyas yara qarovsizlik tufayli qorasonga aylanib Yunus tog'aning olamdan ko'z yumushiga olib kelgandan so'ng, suyuqli jiyani bo'lmish, biznesment Kozimjonning xayolidan o'tgan va ko'zi tushgan manzaraga diqqat qilaylik: "Ana bog' - tog'asi o'z qo'li bilan barpo etgan va esiga tushdi deguncha og'zining tanobi qochib maqtanadigan, ana qo'ra-mol-hol, qo'y echki boqiladigan, ana katak qarshisida soatlab turishib, dakan xo'rozlar jangini tomosha qilishadigan..."¹ Ushbu jumalarda hozirgi zamonga (ana bog', ana katak...) va o'tgan zamonga (qo'li bilan barpo etgan, dakan xo'rozlar jangini tomosha qiladigan) oid ma'lumotlarni uchratishimiz, qahramonimizni nimanidir ko'rib, allanimalarnidir xotirlayotganidan dalolat beradi. "Tanobi qochib maqtanish, soatlab xo'rozlar jangini kuzatish"² kabi holatlar Kozimjonning Yunus tog'a bilan kechirgan baxtiyor onlariga ishora bo'lsa, "Lekin bog'ning sharti ketib, parti qopti: go'yo sochi siyraklashib qolgan boshni esga soladi. Kozimjon tovuqkatakka qarab yo'l yurdi. Lekin u yerda tovuq tugul katakning yarim to'riyam yulib olingandi"³, –degan jumlar kitobxon ruhida kechayotgan g'am-alamni yanada orttiradi. Ushbu jarayonga muallif: "Har holda biron yamoqqa ishlatilgandir..."⁴- deya izoh beradi. Yozuvchi tomonidan berilgan izoh, qahramonimizning o'sha vaqtdagi ijtimoiy holatiga ishora qilishdan tashqari, boqealarning ishonarli bo'lishini ham

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug'bek.Uzoqdagi Dilnura.-T.,Kamalak,2009,mart-aprel.- B 32.

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

⁴ O'sha manba.

ta'minlamoqda. Bor yo'g'ini hatto, kasallik nafaqa puligacha farzandlariga tutgan insonning bog'i yoki tovuqxonasi bunday holga tushib qolishi tabiiy hol. Oyog'i kasalligi uchun doriga pul sarflay olmagan insonni hovlisi avvalgi holatda bo'lsa, bizningcha, kitobxon bunga ishonmagan bo'lardi. Muallifning mahoratini qaranki, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan detallarni o'z o'rnida, bir joyda qo'llay bilgan. Bu esa qarama-qarshi tus olgan hikoya voqeliklarini biz kitobxonlarga uqtirishda

“Uzoqdagi Dilnura” hikoyasining bosh qahramonlaridan biri Kozimjon xayolidan o'tgan bir misra she'r zamiriga olam-olam ma'no-mazmun jo etilgan. Mana o'sha misra: “Somon parchasidek oqib boraman”¹. Somonning parchasini suvda oqish jarayonini kuzatganmisiz? Bor ixtiyorini suv va shamolga topshirgan holda, ixtiyorsiz oqib ketaveradi. Kozimjon ham xuddi samon parchasidek, hayot qonun-qoidalari oldida ojiz qolmoqda edi. Bir necha varoqlar bag'riga jo qilsa bo'ladigan mazmuni yozuvchi mahoratini qaranki, oqayotgan somon parchasi detali orqali ixcham va ta'sirli tarzda ifodalaydi.

Istiqlol davri o'zbek adabiyotida badiiy asar tiliga, shu jumladan hikoyalari tiliga ham juda katta mas'uliyat bilan qaragan, bu borada tinimsiz izlangan, mashaqqatli mehnatning barchasiga chidagan yozuvchilarimizdan biri Zulfiya Qurolboy qizi hisoblanadi. Uning mashaqqatli mehnati mahsuli bo'lmish “Tafakkur” hikoyasidagi Tangriberdining onasi vafotidan keying ahvoliga e'tiborimizni qarataylik: “Uchuqlar asta – sekin kattalashib, yiringli yaraga aylandi. Bir kun kelib yaralar yorilib, qon sachrab, kiyimlari dog' bo'lib qolgandan keyingina Erkaboy bundan xabar topdi,-”² deya muallif qahramonning portretini chizadi. Bu yerda tanaga o'zi yoki boshqalar tomonidan jarohat yetkazilmagan bo'lsa-da, uning ko'ylaklari qon sachrashi oqibatidan qizil dog' bo'lib qolganligi bemorga nisbatan yaqinlari ancha muddat bee'tibor bo'lganligini bildiradi. Qondan dog' bo'lib qolish

¹ www.ziyouz.uz kutubxonasi.H.Ulug'bek.Uzoqdagi Dilnura.-T.,Kamalak,2009,mart-aprel.- B 32.

²Zulfiya Qurolboy qizi.Qadimiy qo'shiq.-T.,O'zbekiston,2012.- B 62.

darajasiga kelgan ko'ylak ham aynan shunday ma'no-mazmunni ifodalovchi detal hisoblanadi, ammo Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" nomli maqolalar to'plami orqali istiqlol davri o'zbek hikoyachiligidagi kichik odam obraziga bergan ta'rifiniga yana bir bor diqqatimizni qaratmoqchimiz. Olimning Kichik odam obrazlarini: "Ular hamisha ham ojiz, notavon, noshud emaslar. Ba'zan juda ishchan, olg'ir, uddaburon bo'lishlari ham mumkin"¹, - deya ta'riflashi asosli edi. Tangriberdining xotirasi qaytish jarayonidagi tafakkurdagi o'zgarishlar quyidagicha: "Keyin... xayoliy kuch iskanjasiga tushib qolgandek qaltirab ketdi. Qaltirash asnosida... yelkasidagi yiringli yaradan nimjongina bir narsalar uchib pastga – ko'rpa ustiga tushdi. Bu qurt edi,-"² deya tasvirlanadi. Bu tasvirlar nafaqat tafakkurdagi o'zgarish tafsiloti, balki jismning yemirilishi ham. Badandagi qurtlar uning yemirilishini ta'sirli tarzda ko'rsatib beruvchi detal vazifasini o'tayapti desak, bizningcha, xato bo'lmaydi. Bu holat bir qaraganda ishonarsizdek tuyulishi mumkin, lekin badiiy adabiyot tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tasavvuf adabiyotida sabr-qanoat timsoli bo'lmish Ay'ub payg'ambarimizning tanasidagi yaraning qurtlaganiga ham eshitganmiz. Demak, inson tanasidagi yaraning qurtlashi, bo'lishi mumkin bo'lmagan to'qima emas. Muallifning shu hayotiy hodisadan qahramonimiz tafakkurida uyg'onayotgan jo'shqinlikka qarshi holatda foydalanishidan maqsadi nima ekan. Bu savollar ongni band etgan holda, xotiringa Abdulla Qahhor so'zlari keldi: "Men Jek Londonning "Jazirama" asarini o'qiyotganimda uning g'oyasini topolmaganman, ammo bor narsamni yig'ishtirib qishloqqa ketgim kelgan. Keyinchalik bilsam asarning bosh g'oyasi ham insonlarda tabiatga bo'lgan mehrni uyg'otish ekan"³. Abdulla Qahhor so'zlari bilan tanishgandan so'ng, barchamiz yozuvchi maqsadini anglagan bo'lsak ajab emas. Qahramonimizning jism yemirilishi jarayonida ruhiyatidagi holatiga muallif

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. -T., Yangi asr avlodi, 2006. - B 84.

² Zulfiya Qurolboy qizi. qadimiy qo'shiq. -T., O'zbekiston, 2012. - B 62.

³ Yoshlar seminariyasida so'zlagan nutqidan.

quyidagicha : “Muzlab qolgan tafakkurida “yilq” etib uchqun paydo bo’ldi. Uchqun asta-sekin alanga olib, zulmatda qaqshab yotgan tasavvur ko’zgusini yoritib, kumushday yaraqlatib yubordi”¹, - deya ta’rif beradi. Bu qarama-qarshiliklarni, jismdan ruhni ustun holatini ko’rgan kitobxon, hayotda “Ilojsiz narsani o’zi yo’q”ligiga yana bir bor amin bo’ladi, hamda o’z orzulari tomon intilishni davom ettiradi. Bizningcha, muallifning bir-biriga zid holatlarni bir o’rinda qo’llashidan maqsadi ham shu bo’lgan. Hikoyadagi qurtlagan yara detali esa istiqlol davri o’zbek adabiyotidagi kichik odam obrazining tafakkur quvvatini ochib berish bilan bir qatorda hikoya g’oyasining ta’sir kuchini ham oshirmoqda.

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. qadimiy qo’shiq. - T., O’zbekiston, 2012. - B 64.

XULOSA

Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida janrida Kichik odam obrazi o'zini to'laqonli ravishda namoyish etdi. Jamiyatda tutgan o'rniga nisbatan shartli ravishda "kichik odam" deya nom olgan bu obraz o'zining ma'naviyati, indamasligi, tinim bilmas, tirishqoqligi bilan xarakterlanadi. Ularni badiiy adabiyotga to'laqonliroq tasvirda kirib kelishini Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi qahramoni yosh yozuvchi yigit xayolon o'z kitobxoniga qilgan murojaati orqali izohlashni boshlasak: "Tushunyapsanmi, o'quvchi, yozuvchining mehnati-yu asarlari qimmatini qay darajada ekanini idrok etyapsanmi? Yozish-chorasizlikdan bosh urilgan chora bo'ldi menga! Yozish bu- alamidan o'zini qayerga qo'yishni bilmagan odamning oq qog'ozdan bunyod etilgan devorga gurs-gurs urib, hovuridan tushmak"¹. Ushbu hovurni vujudga keltiruvchi kuch ijodkorlar tilida ilhom deb ataladi. Haqiqiy, umri boqiy asar yaratishda yozuvchiga, dastavval, ana shunday ilhom zarurligini Abdulla Qahhor ham ta'kidlab: "Yaxshi asar-o'quvchini maftun qiladigan asar, faqat ilhom bilan yozilgan asar"², - deya aytib o'tadi. Yozilishi shartligidan emas, balki ana shunday kuchli ilhom ta'sirida yaratilgan, istiqlol davri o'zbek adabiyoti na'munalariga Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura", Sobir O'narning "Tarvuz", "Tegirmonchining bolasi", Erkin A'zamning "Aralashqo'rg'on", "Bog'bolalik Ko'kaldosh", "Fayzining amakisi", Isajon Sultonning "TODD", Zulfiya Qurolboy qizining "Xoliq amaki", "Qadimiy qo'shiq", "Tafakkur" hikoyalarini kiritishimiz mumkin. Ulardagi shartli ravishda "kichik odam" obrazi deya o'rganayotgan qahramonlarimizni talqin etishda yozuvchilarning har birida individual yondashuv borligini tahlillarda ko'rib o'tdik. Abdulla Qahhorning: "Yaxshi

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z.-T., Yangi asr avlodi, 2006.- B 92.

² Yoshlar seminariyasida so'zlagan nutqidan.

asar ilhomning natijasi, ilhom his qilishning natijasi”¹,- deya aytib o'tgan fikrlariga tayanadigan bo'lsak, Kichik odam obrazlarining nekbin tuyg'ulari, ma'naviy olami yoritilgan asarlar ham teran his etilib, moshohadakorlik bilan qalamga olinmoqda. Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida qalam tebratib kelayotgan nosirlarimiz kichik odam obraziga murojaat etib dunyoni, undagi har bir moddiy boylikni o'tkinchi ekanligini, insonning insoniyligini ta'min etuvchi uning ma'naviyati, qalb dunyosiligini kitobxonlarga his qildirarmoqdalar. Bu o'rinda Abdulla Qahhor aytganiday:“Bilgan bilib qo'yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo'yavermaydi. Adabiyotning zo'r tashviqiy kuchi ham shundan iborat. His qilish-munosabat,munosabat-faoliyat demakdir”²,- degan jumllarini eslash joiz deb o'ylaymiz.

“Har bir yaxshi asarning mehriyosi boshqa yaxshi asarning mehriyosiga o'xshamaganligi uchun yaxshi”³,- degan fikrlarni anglagan holda yozuvchilarimiz kichik odam obrazini yoritishda o'ziga xos individual usullardan foydalanmoqdalar. Ularni xarakterli xususiyatlarini dalillashda qo'llagan detallari ham shular jumlasidan.

Istiqlol davri o'zbek hikoyalarini o'rganish natijasida shu xulosaga keldikki, yozuvchilarimiz inson ma'naviy olamiga chuqur nazar solib, kichik odam obrazini quyidagicha tasvirlaydilar:

- kichik odamning ichki olami, beg'ubor ma'naviyati o'quvchilarga o'rnak qilib ko'rsatildi(Sobir O'narning “Tarvuz”, Ulug'bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyalari va b);

¹ Yoshlar seminariyasida so'zlagan nutqidan.

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

- uning zabun holini tasvir etib, kitobxonlarni ular himoyasiga otlantiradi (Zulfiya Qurolboy qizining “Xoliq amaki” hikoyasi va b);
- ularning salbiy xususiyatlarini yoritib bergan holda zulmga, axloqsizlikka nisbatan nafrat uyg’otadi (Sobir O’narning “Tegirmonchining bolasi” hikoyasi va b);
- hayot falsafasini yoritishda (Isajon Sultonning “Todd” hikoyasi va b) mualliflar ulardan asosiy obraz sifatida foydalanadi.

Ko’rib turganingizdek “kichik odam” deya talqin etilayotgan obraz istiqlol davri o’zbek hikoyachiligida inson ichki olami, ma’naviyatini o’rganishda katta ahamiyatga molik. Bularning barchasi “Odamga yondashishda jo’nlikdan, qolipdan voz kechilganligi nasrimiz taraqqiyotida sog’lom tamoyillar qaror topayotganligidan dalolat beradi”¹. Xullas, o’zbek adabiyotida haqiqiy ma’nodagi zamondosh insonlarning obrazlari “kichik odam” siymosida gavdalantirilgan.

¹ Yo’ldoshev Q. Yoniq so’z.-T., Yangi asr avlodi, 2006.- B 132.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T., O'zbekiston. 2015.- B 304.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T., Ma'naviyat, 2008
3. H.Ulug'bek. Ruhni uyg'otguvchi so'z. -T., Turon zamin ziyo, 2017. - B 404.
4. Ozod vatan saodati. 5-jild, Adabiy tanqid; Sharafiddinov O, G'afurov I, Rahimjonov N, Karimov B va b.larning maqolalari, - T., Adib. 2013. – B 424.
5. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T., Yangi asr avlodi, 2006. – B. 298;
6. Yo'ldoshev Q, Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T., Kamalak, 2016. – B 464.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B 165.
8. O'ljaboyev U. Hikoyachilikda davr nafasi. -T., Turon zamin ziyo, 2016. – B 254.
9. O'ljaboyev U. Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi.-T., Turon zamin ziyo, 2017.- B 216.
10. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. -Toshkent., Sharq, 2015. - B 304.
11. 100 mumtoz faylasuf. -Toshkent., Yangi asr avlodi, 2013. -B 699.
12. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. -T., O'qituvchi, 2017.- B 328.
13. Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. - T., O'zbekiston, 2012,- B 190.
14. S.Isajon. Boqiy darbadar. -T., 2008. - B 154.
15. O'. Sobir. Bibisora.-Toshkent., O'zbekiston, 2011. - B 264.
16. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. –T., Turon zamin ziyo, 1993.- B 244.
17. A. Erkin.
18. A. Qodiriy. Mehrobdan chayon.-T., Turon zamin ziyo, 2015.- B 164.
19. Mirhaydarov H, Rahimov Z, Jo'rayeva. Adabiyot nazariyasi fanidan majmua. - Guliston, 2014. -B 204.
20. Yoshlik. Xarakter va ruhiyat birligi. Z. Karimov.-T., 2015. 10-son. -B 28.
21. O'zbek tili va adabiyoti. S. Rahimov. Adabiyotshunoslikda badiiy detal. –T., Fan, 2010. -B 66.
22. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid) Uch jildlik. 1-jild. -T., 1991. - B 78.
23. Abdulla Qahhor. Yoshlar seminariyasida so'zlagan nutqi.

24. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarini ruscha – o'zbekcha izohli lug'ati.-T., O'qituvchi,1979.
25. Rahmatullayev Sh, Hojiyev A.O'zbek tilining imlo lug'ati.-T.,O'qituvchi,2016. - B 240.
- 26.www.ziyouz.uz kutubxonasi. H.Ulug'bek. Uzoqdagi Dilnura. -Toshkent., Kamalak, 2009, mart-aprel. - B 32.
27. www.ziyouz.uz kutubxonasi. O'.Sobir. Tarvuz. -T., Kamalak, 1993. - B 7.
28. E-mail:til@sarkor.uz kutubxonasi. Xarakter va ruhiyat birligi. -T., Kamalak, 2005. - B 44.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Hozirgi o'zbek hikoyachiligida "kichik odamlar" obrazi talqini.....	6
1.1 "Kichik odamlar" obrazining xarakterli xususiyatlari.....	6
1.2 Ushbu obrazning yuzaga kelish omillari.....	16
II bob. "Kichik odamlar" obrazi talqinida yozuvchi mahorati masalasi.....	27
2.1 "Kichik odamlar" obrazi talqinida yozuvchi individualligi.....	27
2.2 Obraz talqinida badiiy detalning o'rni.....	35
Xulosa.....	47

